

94.102  
D 65

**B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva,  
G.M.Nazirova**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI  
BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING  
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA**  
**FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI**  
**BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING**  
**ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

**TOSHKENT - 2015 yil**

**UO'K: 372.212**

**KBK: 74.102**

**D 221**

Mazkur qo'llanmada maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari, bolalarning me'yoriy rivojlanish mezonlari, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va tarbiyachi mahorati, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasida qo'llaniladigan o'yinlarning psixologik xususiyatlari, ular bilan o'tkaziladigan korreksion-rivojlantiruvchi o'yin-mashg'ulotlar, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hamda maktabgacha ta'limga oid asosiy tushunchalarning izohli lug'ati keltirilgan.

Qo'llanma **II3-2014-0906083753** - raqamli **"Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi"** mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari, shu yo'nalishda oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar va ota-onalar uchun tayyorlangan.

**Mas'ul muharrir:**

X.F.Rashidov - pedagogika fanlari doktori,  
professor

**Taqrizchilar:**

A.P.Sulaymonov - pedagogika fanlari nomzodi, katta  
ilmiy xodim

M.N.A'zamova - Maktabgacha ta'lim muassasalari  
xodimlarini qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish respublika  
o'quv metodika markazi direktori

## KIRISH

Bugungi kunda jahonning ilg'or mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning pirovardida inson paydo bo'lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o'qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o'zaro bog'langan va harakatdagi tizimini yaratish e'tiborga molikdir. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda.

Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, uning 11-moddasida maktabgacha ta'lim bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, axloqiy, estetik, xullas, har jihatdan ta'limning keyingi turida, ya'ni maktabda o'qishga tayyorlashi lozimligi ta'kidlanadi.

Ta'lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi, shubhasiz, ularning har qaysisiga xos, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu asnoda tarbiyalanayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati boshqa ta'lim muassasalarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ta'lim sifatini boshqarishning umumiy nazariy yo'llarini maktabgacha ta'lim amaliyotiga mexanik ravishda ko'chirish mumkin emas. Ular maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining o'ziga xosliklariga mos yangi mazmun bilan to'ldirilishi kerak.

E'tirof etish joizki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim Konsepsiyasida<sup>1</sup> ular quyidagicha izohlanadi: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar ham maktabgacha ta'lim muassasalardagi ta'lim jarayoni va uning samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi maxsus tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini tizimida sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko'rsatdi.

Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirishga, ularni

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим концепцияси. Кодирова Ф.Р., Кодирова Р.М., Ваҳובהва Ф.Н. – Т.: 2008, Б.3

qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi 3 yilda ajratilgan mablag'larning hajmi 2 baravar ortdi.

Tahlil natijalariga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralar mavjudligini ko'rsatdi.

## **MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY DAVLATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDAGI OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI, TAJRIBALAR TAHLILI**

Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tadbir qilish - davlat ta'limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim sifati ustuvorligi ta'lim siyosatining yadrosi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb qilib qo'yadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi, unda "komil inson" asoslarini shakllanishi va yuzaga kelish davri - noyob davr deb belgilanganligi tufayli maktabgacha ta'lim, ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Sifat darajasini e'tirof etish va uni hayotning barcha sohalariga, jumladan, ayniqsa inson va jamiyat bo'lg'usi hayotiy faoliyatining qiyofasini belgilovchi va shakllantiruvchi ta'lim sohasiga singdirish inson hamjamiyatining zamonaviy taraqqiyotiga xosdir. Shu nuqtai nazardan ta'lim "madaniyatli inson" yoki sivilizatsiya va aynan jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichida ijtimoiy-madaniy me'yorlarga javob beruvchi inson shakllanishini ta'minlovchi madaniy-ijodiy vazifani zimmasiga oluvchi umummadaniy qadriyat sifatida (B.S.Gershunskiy, E.N.Gusinsky, B.T.Lixachev, E.Sh.Qurbonov, E.A.Seytxalilov, A.I.Subetto va boshqalar) gavdalanadi. Shu jihatdan ta'limni "kvalitetizatsiya" (lotincha quality - sifati) bo'lg'usi, zamonaning muhim ijtimoiy jarayonlari dinamikasini, shu jumladan, shaxs rivojlanishi ustuvorligiga sabab bo'luvchi zarurat (E.Sh.Qurbonov, E.A.Seytxalilov), jamiyatining "barqaror rivojlanishi" modeliga o'tish jarayonini ta'minlashga qodir insonni shakllantirishni yuzaga keltiruvchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, ta'limning hamda amalga oshirilayotgan milliy modeli va dasturining xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy

rivojlanish, uning intellektual salohiyatini oshishi, jamiyatning gullab yashnashi va taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlar ekan, shunday deydi; "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi, mubolag'asiz, bizning strategik maqsadlarimiz - farovon, kuchli demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga erishish uchun asos bo'lishi lozim".

Ta'lim sifati va uni nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish tizimlarini shakllantirish hamda tadbiq qilish - davlat ta'limi siyosati, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Modelining ustuvor yo'nalishlaridan biri, mustaqil yirik ilmiy tadqiqot yo'nalishi va fanning dolzarb vazifasidir.

Ta'lim sifati muammosi umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limga muvofiq nazariy tahlil qilingan bo'lib (R.Sh.Axlidinov, N.I.Bulinskiy, U.I.Inoyatov, V.A.Kalney, Sh.E.Kurbanov, V.P.Panasyuk, M.M.Potashnik, X.F.Rashidov, E.A.Seytxalilov, N.A.Selezneva, A.I.Subetto, U.Q.Tolipov, P.I.Tretyakov, S.T.Turg'unov, T.I.Shamova, S.E.Shishov va boshqalar tomonidan) bunday boshqaruv, uning texnologiyalarining nazariy, tashkiliy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida ta'lim sifati va samaradorligini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning bazaviy komponentlarining o'ziga singdirish jiddiy nazariy eksperimental tadqiqotlarga muhtoj.

Nazariy tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim sifati masalasi zamonaviy pedagogika sohasida kam ishlab chiqilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bizga ma'lum adabiyotlardan juda ham cheklangan miqdordagi tadqiqotlarni (masalan, L.I.Falyushinoy) topdikki, ularda mazkur muammoni maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining ish vaqtidan oqilona foydalanib va pedagog kadrlar bilan metodik ishlarni tashkil qilish vositasida hal qilishga harakat qilingan. Afsuski, sifatli ta'limni ta'minlashning belgilangan jihatlari uni yechish imkonini bermasligi tufayli ushbu muammoni kompleks tadqiq qilishga imkon bermaydi.

Maktabgacha ta'lim jarayoni sifat va samaradorligining o'zi ham maxsus tadqiq qilinmagan. O'tgan asrning 90-yillari T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITIning ilmiy xodimlari O.L.Knyazeva, M.Rasulova, R.B.Stirkina, E.G.Yudinaning maktabgacha ta'lim davlat ta'lim standartini (1994), so'ngra maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishga bag'ishlangan (1999) ishlari e'lon qilingan bo'lib, sifat, ta'lim jarayonida tadbir qilinishi bola rivojlanishni ta'minlaydigan psixologik-pedagogik shart-sharoit va talablar kontekstida ko'rib chiqilgan. Mualliflar bunday shartlarga ta'lim dasturlari (bolaning ma'lum bosqichda erishishi talab qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalarini qo'shgan holda), pedagogning chuqur kasbiy bilimga egaligi, birinchi navbatda uning bolalar, predmet-rivojlantiruvchi muhit bilan shaxsiy - mo'ljalli o'zaro munosabatlarini kiritganlar.

Keyinroq bir qator olimlarning (T.I.Aliyev, K.O.Beliy, L.A.Paramonov, M.Rasulova va boshqalar) maktabgacha ta'lim sifatini uning protsessual va natijaviy tarkiblari birinchi marotaba va keng tushunishga asoslangan chiqishlari e'lon qilindi.

2008 yilda esa F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, F.N.Vahobovalar tomonidan "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

Barcha mualliflar maktabgacha ta'lim sifatini faqatgina uning psixologik-pedagogik jihatlari nuqtai nazardan ko'rib chiqishganligini qayd etish qiyin emaski, bu u haqdagi tushunchani yaxshi shakllantirish uchun yetarli emas. Bunga nafaqat psixologiya va pedagogika, balki, falsafa, sotsiologiya, kvalimetriya, boshqaruv fanlariga oid bilimlarning integratsiyalashuviga asoslangan fanlararo yondashuv sharoitidagina erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta'minlovchi ta'lim tashkiloti sifatida namoyon bo'lishi ham o'rganilmagan. Shunday vaqtda o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta'lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy-asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;

- maktabgacha ta'lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;

- ta'lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko'ra bilish mavjud emasligi tufayli ta'lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta'sir amaliyoti;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega bo'lgan potentsialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;

- ta'lim sifatini obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

Insoniyat o'z taraqqiyoti mobaynida har biri o'z alohida xususiyatlariga ega bo'lgan bir necha davrlarni bosib o'tdi. Sivilizatsiya taraqqiyotining u yoki bu davrining o'ziga xosligini belgilovchi ustuvor belgi sifatida "inson - inson" va "inson - tabiat" tizimlaridagi munosabatlar maydonga chiqadi.

Tadqiqot yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etish imkonini berdi:

Birinchi, salomatlikni asrovchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda

namoyon bo'ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror hayotchanligini saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ikkinchi - rivojlantiruvchi funksiya, ta'lim jarayonining "madaniyatli kishi" asosini shakllantirishga qaratilganligidan iboratdir, bu "...bolaning aqliy, ma'naviy va jismoniy layoqatlarini to'laqonli" ("Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta'minlash (BMT konvensiyasi) bilan to'la bog'liqdir;

Uchinchi - tuzatuvchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog'liq;

To'rtinchi - bola yoshi rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishida uzviylikni ta'minlash funksiyasi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

- barcha asosiy yo'llar bo'yicha bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;

- bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maktabgacha ta'limning o'zini-o'zi qoplashi prinsipi;

- ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u yetakchi va o'ziga xos bolalar faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;

- maktabgacha ta'limning shaxsga qaratilganlik tavsifi;

- bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy "o'zlashtirishni" ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini "ishga solishni" nazarda tutadi;

- ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Maktabgacha bolalikning o'z qiymatini saqlash nuqtai nazaridan ta'lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan sanab o'tilgan prinsiplarni biz sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning qadriyat hosil qiluvchi me'yoriy asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lumot olishiga davlat belgilaydigan me'yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, ularning bolani rivojlantirishning to'laqonligi va yaxlitligini ta'minlash bilan birga maktabgacha ta'lim bolalikning o'z mohiyatini saqlashga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi.

Ta'lim jarayonining sifati uning mazmunining, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi.

Resurs ta'minoti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, ruhiy, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shart-sharoitlarning sifatidan tarkib topadi.

Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta'lim muassasasining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

MTMda bolalar faoliyatini tashkil etish jarayoni, tizimli sifatning barcha xususiyatlarini va tavsiflarini umumlashgan holda o'zida tashuvchi maktabgacha ta'lim sifatining tizim hosil qiluvchi birligi hisoblanadi. Bolalar faoliyatining muayyan turlarini shakllantirish jarayonlari sifatining jami bolalarni rivojlantirish jarayonlarining u yoki bu sifatini shakllantiradi (jismoniy, ijtimoiy, bilim olish, badiiy-estetik), ulardan o'z navbatida ham alohida olingan yosh guruhi, ham butun maktabgacha ta'lim muassasasi yaxlit ta'lim jarayonining sifati hosil bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'minlaydigan ta'limning sifat holati doimiy hisoblanmaydi: u yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga qarab o'zgaradi. Tashqi va ichki omillardan kelib chiquvchi tashqi va ichki hamjihatlik ularning paydo bo'lishining manbai hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim sifati jarayon va natijaning, haqiqiy va potensial, ichki va tashqi sifatning birligi sifatida namoyan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalar ta'limiga davlat va jamiyat talablarini aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma beradigan maqsadlar tizimining markaziy sifat hosil qiluvchi tashqi omili

hisoblanadi. Bunday maqsadlar hamisha jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy andozalar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, malakalilik, mustaqillik, erkinlik va mas'uliyat, tabiat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish mahorati, hayotning yangi sifatini yaratish maqsadida madaniy-tarixiy makonni faol, ijodiy o'zlashtirish layoqati uning o'ziga xos tavsiflari hisoblanadi. Bizningcha, sifatga yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma aynan shunday asosiy tavsiflarga ega shaxsni shakllantirishni nazarda tutishi kerak.

Maktabgacha ta'lim sifati - natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so'z yuritish mumkin:

- tizimli tabaqalanadigan malakalilik:
  - til malakasi, bolaning o'z fikrlari, istaklari va niyatlarini nutq vositasida va nutqsiz vositalarda erkin ifodalashni nazarda tutadi;
  - ijtimoiy malaka, har bir insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o'ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o'zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o'z ichiga oladi;
  - intellektual malaka, o'z maqsadiga erishish uchun bolaga yangi xatti- harakatlarini ijro etishga va ularni bajarishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;
  - jismoniy malaka, bolaning o'z yosh darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallaganligini ko'rsatadi;
- ixtiyoriylik. bola tomonidan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'z xatti-harakatini boshqarish ko'nikmasida namoyon bo'ladi;
- mustaqillik. kundalik hayotda va ishda paydo bo'ladigan turli vazifalarni bola tomonidan kattalarning yordamisiz mustaqil kun tartibiga qo'yish va hal qilishni ta'minlaydi;
- mas'uliyat. "mumkin" va "mumkin emas", "yaxshi" va "yomon", "xohlayman" va "kerak" o'rtasida tanlov vaziyatida paydo bo'ladi;

- tashabbuskorlik. bolaning o'z istaklariga javob beruvchi o'yinlarni, samarali faoliyat turlarini tashkil etishga urinishda va ularga o'z tengdoshlarini jalb qilish mahoratida ifodalanadi;

- ijodkorlik. ish jarayonida paydo bo'ladigan hamda o'z originalligi va variativligi bilan ajralib turuvchi yangi mahsulot yaratishda namoyon bo'ladigan turli muammolarni ijodiy hal qilishga bolaning layoqatini ko'rsatadi;

- xatti-harakat erkinligi. bolaning ijtimoiy qabul qilingan qoidalar va taqiqlarga rioya qilishini taqozo etuvchi harakat va faoliyat yo'nalishi, ular o'rtasida quyidagi to'rttasi eng muhim hisoblanadi: o'zgaga, o'zingga, tabiatga, boshqa odamlar yasagan narsalarga ziyon yetkazma;

- xavfsizlik. bolada o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini his qilish va ko'ra bilish layoqati borligi bilan tavsiflanadi, bu unda me'yor, ehtiyotkorlik tuyg'ularining shakllanishi bilan bog'liq;

- o'z-o'zini anglash va o'zini baholash. bolada o'z timsolini shakllantirishda, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda o'z o'rnini anglashda, o'z imkoniyatlarini baholashda, hali ko'p o'qish kerakligini tushunishda namoyon bo'ladi. Bu shaxsning asosiy tavsiflari tizimi - maktab yoshigacha bolaning asosiy rivojlanish dasturi konsepsiyasida taqdim etilgan. Maktabgacha ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillariga ijtimoiy buyurtmali maqsadlardan tashqari maktabgacha ta'limga davlat me'yorlari (talablari), shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ta'lim berish uchun zarur bo'lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hokozo) kiradi.

Maktabgacha ta'lim sifatini shakllantirishda pedagogik jamoa tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan ichki omillarga alohida rol tegishlidir.

Omillar cheksiz ko'pdir, shu sababli ularning hammasini amalda hisobga olish mumkin emas. Shu holatdan kelib chiqib, ulardan eng muhimlarini ajratib ko'rsatish zarur. Bizningcha, quyidagilar shunday omillar hisoblanadi:

- pedagoglar va rahbarlarning kasbiy malakasi;
- ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish usullari;
- pedagogning bolalar bilan o'zaro hamkorligining xili;

- bolalar hayot faoliyatini umumiy tashkil etish;
- kadrlar, moddiy dasturiy-uslubiy, moddiy resurslar;
- sanitariya-gigiyena sharoitlari va ta'lim jarayonini tibbiy sog'lomlashtirish choralari;
- ta'lim jarayonini ruhiy qo'llab-quvvatlash;
- predmetli-rivojlanuvchi muhit;
- ijtimoiy tuzilmalarning muassasaning pedagogik jamoasi bilan o'zaro aloqasi;
- bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish masalalarida maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning o'zaro kelishilgan harakatlari;
- maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish.

Maktabgacha ta'lim sifatini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda shart-sharoitlarda - omillar harakat qiluvchi holat, muhit alohida ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish shart-sharoitlariga biz quyidagilarni kiritamiz:

- "madaniyatli kishi" asoslari shakllanishining nodir davri sifatida maktabgacha bolalikning o'z qadrini saqlashga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;
- maktabgacha ta'lim sifatiga jamoaning qat'iy qadriyat tarzidagi munosabati;
- maktabgacha ta'lim muassasasida, hamda malaka oshirish tizimida pedagoglar va rahbarlarning kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirish;
- jamoadagi ijobiy ruhiy muhit;
- pedagogik jamoa va rahbar faoliyatining ijodiy yo'nalganligi;
- ta'lim dasturlari va texnologiyalarini savodli tanlash erkinligining mavjudligi;
- zarur mehnat sharoitlarining mavjudligi;
- sifatli ishni moddiy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;
- madaniy tajribani tashuvchi sifatida sifat uchun mas'uliyatni pedagogga berish;
- maktabgacha ta'limda innovatsion tizimlar bankini yaratish;
- oilaning ta'lim ehtiyojlariga va talablariga qarab yo'nalish olish;

- ta'lim jarayonining holatini muntazam jamoada muhokama qilishni tashkil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Omillar va shart-sharoitlar o'rtasida o'zaro aloqa mavjud. Sharoitlar omillarning imkoniyatlari paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'limning sifatini oshirish omillari va sharoitlarining garmonik uyg'unligini ta'minlash o'ta muhimdir.

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (xorij tajribalari asosida)**

XXI asr kishisining idealini ta'lim tizimiga kiritish uning barcha bo'g'inlarining, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimining sifat jihatidan yangilanishi bilan bog'liq. Hammaga ma'lumki, inson hayotining dastlabki yetti yilini o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lim yosh davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob holat hisoblanadi. Aynan shu yillarda bolada o'z asosiy insoniy qobiliyatlarining shakllanishi yuz beradi, uning shaxsi rivojining asoslari qo'yiladi.

Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobiliyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganligiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bularning hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi<sup>1</sup>.

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqarish, maqsadlar, mazmun, vositalar va usullar sifatga, ya'ni sifat va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgandagina "barkamol shaxs" asoslarini shakllantirishni ta'minlovchi ta'lim darajasiga erishish mumkin bo'ladi. Modomiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish - ta'lim sifatini boshqarish yaxlit tizimining o'zini-o'zi ta'minlovchi birligi bo'lib

<sup>1</sup> Леонтьев А.Н. Деятельност. Сознание. Личност. - М.: Политиздат, 1975.- 304 с.

xizmat qilar ekan, bunda uni bu jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish kerak.

Samaradorlik xar qanday faoliyatda eng kam kuch sarflash va moddiy jihatdan kam harajat qilgan holda, qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga to'la erishishdir. Garchi buni faoliyatga tatbiq etadigan bo'lsak, unda qulaylik tomoni ham hisobga olinadi. Lekin uning amalda hal qilinishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limdagi va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak.

Har qanday boshqa ilmiy ijtimoiy nazariya kabi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish nazariyasi ham turli fanlar, avvalo falsafa fani tomonidan ishlab chiqilgan umumslubiy yondashuvlardan, qoidalardan, prinsiplardan kelib chiqadi.

Obyektivlik, o'zaro hamjihatlik, taraqqiyot prinsiplari maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini boshqarishning uslubiy asosi hisoblanadi (R.Axliddinov, N.I.Bulinskiy, U.Inoyatov, V.P.Panasyuk, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.M.Potashnik, X.F.Rashidov, N.A.Selezneva, A.I.Subetto, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova va boshqalar).

**Obyektivlik prinsipi.** Ushbu umumilmiy prinsip bilish jarayonini dialektik-materialistik talqin qilish bilan bog'liqdir. Obyektiv mavjud bo'lgan borliqni to'g'ri yoki taxminan to'g'ri aks ettiruvchi ilmiy bilimning obyektivligini tan olish uning o'zagini tashkil etadi. Haqiqat bilimlarning mohiyatidan iboratdir, ular bilimni anglovchi kishining irodasi va istaklariga bog'liq bo'lmaydi. Ammo ayni vaqtda obyektiv sifatlar, aloqalar va tashqi dunyoning munosabatlari bilim subyektining ongida in'ikos etib, uning bilish predmetiga aylanadi, undan muayyan xulosalar chiqariladi, u yoki bu munosabat shakllantiriladi.

Ushbu subyektiv holatlar ta'lim jarayoni sifatini boshqaruvchi maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik va boshqaruv

xodimlarining yaxshi nazariy tayyorgarligi sharoitida obyektiv mazmun bilan mos keladi.

Modomiki, maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish jarayoni hamisha, eng avvalo, baholash ko'rsatkichlarini tanlash, tegishli baholash mezonlaridan foydalanish, olingan ma'lumotlarni ekspert baholashi mobaynida talqin qilishning to'g'riligi va hokazolar bilan bog'liq yetarlicha miqdordagi subyektiv omillarni o'ziga qamrab olar ekan, bunda uning subyektlari uchun olingan ma'lumot va uning bahosining xolisligiga va aniqligiga erishishga intilish o'ta muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishga nisbatan bu prinsipni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:


- ta'lim jarayoni sifatini belgilovchi muhim xususiyatlarni muvaqqat omillar tufayli paydo bo'ladigan nomuhim xususiyatlardan ajratish va buning natijasi sifatida boshqaruv ta'sirlarining to'g'ri yo'nalishini tanlash;

- ta'lim jarayonini uning miqdoriy va sifat tavsiflari birligida tadqiq qilish;

- ta'lim jarayoni sifati va uning natijalarini ularni keltirib chiqargan aniq tashqi va ichki holatlar kontekstida ko'rib chiqish;

- informativlik, obyektivlik va ishonchlilik talablariga javob beruvchi nazorat-baholash vositalaridan foydalanish.

**O'zaro hamjihatlik prinsipi.** Amal qilish shart-sharoitlaridan qat'iy nazar, har qanday pedagogik holat o'zicha, o'z qobig'iga o'ralgan holatda emas, balki faqat o'rab turgan borliqdagi boshqa jarayonlar bilan o'zaro hamjihatlik asosidagina mavjud bo'ladi. Hamjihatlik har qanday tuzilma elementlari aloqasining usuli, uning o'zgaruvchanligi va barqarorligining asosi hisoblanadi, shu sababli u yoki bu obyektning mohiyatiga kirib borish zarurati uni pedagogik faoliyatning boshqa holatlari bilan turli munosabatlar orqali ko'rib chiqishni taqozo etadi. U yoki bu obyektlar o'zaro hamjihatligining vositalarini bila turib, ularning istalgan paytdagi holatini prognoz (bashorat) qilish mumkin.



Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish doirasida o'zaro hamjihatlik prinsipi quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

- ta'lim jarayoni holati, uning natijalari va ularni keltirib chiqargan tashqi va ichki omillar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va shundan kelib chiqqan holda, ularning kelgusi o'zgarishlarini bashorat qilish; maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini loyihalashtirishning asosi sifatida tahlil va bashorat qilish natijalaridan foydalanish;

- maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini xususiyatlarning yig'indisi (integral va oddiy) sifatida ko'rib chiqish, ularning o'zaro hamjihatligining mexanizmini ochib berish;

- sifatni takomillashtirishni uning protsessual va natijadorlik qismlarining o'zaro bog'liqligida tadqiq qilish;

- sifatni boshqarish jarayonining tuzilmaviy-funksional qismlari o'rtasida zarur aloqalarni o'rnatish;

- boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini chiziqli-funksional va asosiy tuzilmaviy birliklarni uyg'unlashtirish prinsiplarida qurish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda xodimlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish.

**Rivojlanish prinsipi.** Ushbu prinsip har qanday obyektни paydo bo'lish, shakllanish va o'zgarish jarayonida ko'rib chiqishni; uning ziddiyatli xususiyatini ochib tashlashni, miqdor va sifat o'zgarishlarini hisobga olishni, bir holatdan boshqa holatlarga o'tish imkoniyatini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligiga tatbiqan bu prinsip quyidagilarni taqozo qiladi:

- boshqarish obyektidagi miqdor va sifat o'zgarishlarini ko'rishga, bu o'zgarishlarning xarakterini (progressiv yoki regressiv) aniqlashga imkon beruvchi ta'lim sifatining tizimli monitoringini o'tkazish;

- boshqariladigan obyektning real sifatdan potensial sifatga o'tishining sabablarini va vositalarini aniqlash;

- boshqaruvni nafaqat boshqaruv jarayonining belgilangan doirada faoliyat ko'rsatishiga, balki uning rivojlanishiga ham yo'naltirish, buning natijasida u yangi sifat holatiga erishadi;

- rahbar tomonidan rivojlanish subyektiv tabiatga egaligining anglanishi va ta'lim jarayonining sifat holatiga erishishga qaratilgan jamoaning ijodiy o'zgartiruvchilik faoliyatini kengaytirish doirasida inson omilini faollashtirishga e'tiborni jalb etish(1-rasm).

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishda psixologiya va pedagogika tomonidan ifodalangan qator g'oyalar va qoidalar prinsipial metodologik ahamiyatga egadir.

1. Shaxsning rivojlanishida faoliyatning alohida rolini belgilab beruvchi shaxs va faoliyat nazariyasi<sup>1</sup>. Ko'rib chiqilayotgan nazariyada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish uchun quyidagilar eng muhim masalalar hisoblanadi:


- ta'lim tizimlarida faoliyatning asosiy maqsadi va natijasi sifatida bola shaxsining rivojlanishini ajratish, malakalilik, tashabbuskorlik, ixtiyoriylik, mustaqillik, ijodkorlik, xatti-harakat erkinligi va xavfsizlik, o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi baholash uning asosiy tavsiflari bo'lib maydonga chiqadi;

- shaxsning rivojlanishida yetakchi faoliyatning rolini asoslash;

- faoliyat va unda bolani to'laqonli rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida predmetli-rivojlantiruvchi muhitni yaratishning alohida ahamiyatini asoslovchi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani rivojlantirishning faoliyatli asosini predmetli boyitish;

---

<sup>1</sup> Макаренко А.С. О воспитании. //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.



**1-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifat va samaradorligini ta'minlovchi ilmiy prinsiplar**

- ta'lim tizimlarida faoliyatning o'ziga xosligini ajratish, u shundan iboratki, bunda uning qonuniyatlari kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati nuqtai nazaridan yanada to'laroq ochiladi hamda pedagog va bolaning o'zaro muloqoti, hamkorligi bilan bog'liq subyekt - subyekt munosabatlarida aniqlashtiriladi.

2. Ta'lim jarayonida bolani rivojlantirishning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan psixik rivojlanish bo'yicha o'qitishning yetakchi roli haqidagi qoida va unga asoslangan rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi.

3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalikning o'z qiymati, uning insonni yanada rivojlantirishning ilk asoslari shakllanishining noyob davri sifatidagi ko'chmas ahamiyati, uni ro'yobga chiqarish har bir yoshdagi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga javob beruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarurligini va bolalarning o'ziga xosligini hisobga olishni taqozo

etadi. Bu shart-sharoitlarning jami barcha asosiy yo'nalishlar bo'yicha ya'ni jismoniy, idrokiy, ijtimoiy, badiiy-estetik rivojlanish bolani to'laqonli va yaxlit rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy o'zlashtirish konsepsiyasi. U yoki bu faoliyatni egallashda shakllanadigan va rivojlanadigan har bir bolaning ijodiy imkoniyatlarini eng ko'p darajada ochish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligini asoslaydi.

5. O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan modelida o'z aniq mujassam ifodasini topgan ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi<sup>1</sup>. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni sifatini takomillashtirish muammosiga tatbiqan bu g'oya quyidagi qoidalar orqali taqdim qilinishi mumkin:

- bola shaxsini rivojlantirish ta'lim jarayoni sifatining va uning natijalarining bosh mezon bo'lishi kerak;

- sifatga yo'naltirilgan ta'lim bolaning o'ziga xosligini qo'llab-quvvatlash asosiga qurilishi kerak;

- ta'lim mazmunini ishlab chiqishda umuminsoniy qadriyatlar hamda jahon va mamlakat madaniyati qadriyatlarining ustuvorligi e'tirof etilishi;

- faoliyat mazmunini, usullarini tanlashda bola ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalar bilan pedagogik ishni tashkil qilishda pedagogga mustaqillik berish, bir vaqtning o'zida sifatli ta'lim uchun uning mas'uliyatini oshirish.

Tadqiqotimizning obyekti va predmeti murakkab kategoriyalar jumlasiga kirganligi sababli ularning mohiyati va mexanizmlari sistemologiya, sinergetika, boshqaruv nazariyasi, kibernetika, kvalimetriya, pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni jalb qilgan holda o'rganildi. Bu fanlarga oid bilimlarga tayanish quyidagi yondashuvlarning yig'indisi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning metodologiyasini integral tasavvur qilishga imkon

---

<sup>1</sup> Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.- T.: O'zbekiston, 1999. - 29 b.

**berdi:** kibernetik, tizimiy, tizimiy-genetik, majmuaviy, sinergetik, markazda inson turuvchi, dasturiy-maqсадli, kvalimetrik, vaziyatli.

**Kibernetik yondashuv** obyektning vaqt makonida turli holatlarda mavjud bo'lishi holatiga asoslangan, bu uni dinamik aspektida ko'rib chiqishga imkon beradi (A.I.Berg, U.R.Eshbi va boshqalar).

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti uchun kibernetik yondashuvning quyidagi qoidalari juda muhim hisoblanadi:

1. Obyektning dinamikada (o'zgarishda), protsessual va natijadorlik qismlarining, real va potensial holatlarning birligi sifatida ko'rib chiqish.

2. Jarayonda obyektning real holatdan potensial holatga o'tishini ta'minlovchi muayyan a'mollar borligini e'tirof etish.

3. Mazkur jarayonni murakkab dinamik tizim sifatida tushunish.

4. Obyekt va subyektning tizim rang-barangligiga muvofiq kelishini ta'minlash zarurligi haqidagi masalani qo'yish.

**Tizimiy yondashuv** (V.G.Afanasev, L.fon Bertalanfi, I.V.Blauberg, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, S.Optner, V.G.Sadovskiy, A.I.Subetto, E.G.Yudin va boshqalar) murakkab obyektlarni bilishning aniq-ilmiiy metodologiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi muammosiga tatbiqan tizimiy yondashuv quyidagilarni taqozo qiladi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini murakkab tizim sifatida tadqiq qilish: uning tarkibidan ajratish; uning tuzilmasini tashkil qiluvchi ichki aloqalarni, tashqi muhit bilan o'zaro hamjihatligining xususiyatlarini belgilash; unga xos bo'lgan fazilatlarini aniqlash va uning aniq bahosini belgilashni ta'minlash darajasigacha qayta tuzish; uni tashkil qiluvchi xususiyatlarni baholash va aksincha, xususiyatlar bahosini uning yaxlit tavsifi orqali ko'rib chiqish.

2. Ta'lim jarayonini uning shakllanishi va rivojlanishi

sharoitlari kontekstida bilish, bu maktabgacha ta'lim muassasasining sifatni ta'minlovchi tashkilot sifatidagi salohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

3. Sifatni takomillashtirishni ochiq tizim sifatida ko'rib chiqish, u tashqi muhit bilan o'zaro hamjihatlikda bo'ladi; ta'lim sifatiga erishish vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq va boshqaruv jarayonini tashkil qiluvchi harakatlarning (funksiyalarning) mavjudligi bilan tavsiflanadi; rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

**Tizimiy-genetik yondashuv** tizimning rivojlanishidagi uzviylik mexanizmlarini ochib beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi muammolarini tadqiq qilishda tizimiy-genetik yondashuvning quyidagi qoidalari alohida ahamiyatga ega bo'ladi:

1. Tashkil etish va boshqarishning dualligi qonunida aks etgan tizimning evolyusiyasidagi (barqarorlik va o'zgaruvchanlik) ikki tomonlama mexanizmni e'tirof qilish. Mexanizmlarning birinchisi (barqarorlik) ijobiy holatlarni, ya'ni "o'tgan vaqtdagi" holatlarni jamlash va saqlash bilan tavsiflanadi, ikkinchisi esa (o'zgaruvchanlik) – yangi ilg'or g'oyalarni kiritish yo'li bilan mavjud g'oyalarni ko'paytirish, ya'ni "kelgusi davrga" jamg'arish bilan xarakterlanadi. Mazkur qoida tashqi muhitning barqarorligi sharoitida boshqariladigan obyekt parametrlarini saqlab qolishga qaratilgan amal qilishni boshqarishni tashkil etish va obyektning mohiyatini belgilaydigan hamda yangi sifat holatiga o'tishini ta'minlaydigan boshqaruv obyektining tuzilmasini va xususiyatlarini o'zgartirishga qaratilgan innovatsion faoliyatni kengaytirish bilan bog'liq rivojlanishni boshqarish zarurligini asoslaydi.

2. Har qanday tizimni rivojlantirish va asrash asosi sifatida funksiyalarning dolzarblashuvi prinsipini ajratish (o'z faoliyat ko'rsatishining xarakteriga mos yaxlit xususiyatlarning elementlarini egallash). Bu qoidani maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashga nisbatan tatbiq etish quyidagilarni nazarda tutadi: a) boshqaruv tashkiliy tuzilmasining boshqariladigan obyektga

muvofiq kelishini aniqlash; b) boshqaruv funksional tarkibining ta'lim sifatini ta'minlash maqsadlariga moslashuvi.

**Majmuaviy yondashuv** tizimiy yondashuv bilan bevosita bog'liqdir va unga majburiy qo'shimcha hisoblanadi. Majmuaviy yondashuv nuqtai nazaridan maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish quyidagilarni taqozo qilishi kerak:

1. Boshqaruv faoliyatini turli fanlar, birinchi navbatda, kvalitologiya (U.Inoyatov, X.Rashidov, A.I.Subetto), kibernetika, sistemologiya, psixologiya, pedagogika va hokozalar, fanlari sohasidagi bilimlarga tayangan holda tashkil qilish.

2. O'zaro bog'liq ikki jarayonning muvofiqligini ta'minlash: amal qilish va rivojlanish.

3. O'zaro bog'liqlikni aniqlash: a) boshqaruv maqsadlari va ularni amalga oshirish yo'nalishlari; b) barcha boshqaruv subyektlarining harakatlari; v) ta'limiy, rivojlantiruvchi, takomillashtirish va uzviylik maqsadlari, shuningdek, ularga erishish yo'llari.

4. Maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi barcha eng muhim tashqi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, ijtimoiy-madaniy) va ichki (ijtimoiy-psixologik, pedagogik, tashkiliy-boshqaruv) omillarning ta'sirini hisobga olish.

**Sinergetik yondashuv** tashkil etilishi murakkab bo'lgan dinamik tizimlarning o'zini-o'zi tashkil etish va rivojlantirish qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi (L.A.Bayev, S.L.Kurdyumov, A.I.Prigojiy, U.R.Eshbi va boshqalar). Bunday yondashuv ochiq tizimlarning (jumladan, ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida inson, maktabgacha ta'lim muassasasining) hayotiy faoliyati mohiyatini ochib beradi, o'zini-o'zi tashkil etishi hisobidan tashqi muhit bilan ularning faol hamkorlik qilishida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim sifatini takomillashtirish mexanizmini tushunish uchun maktabgacha ta'lim tizimlari faoliyat ko'rsatishining o'ziga xosligini hisobga olib, aniqlashtirilgan sinergetik yondashuvning yetakchi qoidalari muhim metodologik ahamiyatga egadir:

1. Takomillashtirilayotgan tizimlarning alohidaligi holatini

tan olish, unga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasi rivojlanishining o'z tendensiyalariga mos kelmaydigan "imperativ tashqi boshqarish" (T.I.Davidenko, T.I.Shamova) kam samarali hisoblanadi.

2. Takomillashtirishni maqsadli va qadriyatli tashkil etishning zarurligini (ularning maqsadga muvofiq uyg'unligida) asoslash (maktabgacha ta'lim muassasasining o'z ehtiyojlariga, shuningdek, bu ta'lim jarayoni ishtirokchilarining manfaatlari va ehtiyojlariga javob beradigan).

3. O'zini-o'zi boshqarib rivojlanadigan manba sifatida barqarorlik va o'zgaruvchanlik o'rtasidagi ziddiyatni ajratib ko'rsatish, u bir tomondan, maktabgacha ta'lim muassasasida maqbul natija olishni ta'minlaydigan o'z asosiy xususiyatlarini saqlab qolishda, boshqa tomondan esa, tashqi va ichki resurslardan samarali foydalanish vositasida rivojlanishga uning o'zini yo'naltirishda ifodalanadi.

**Markazda shaxs turishi yondashuvi** (Yu.A.Konarjevskiy, B.C.Lazarev, N.V.Nemova, Z.I.Ravkin, V.A.Slastenin, P.I.Tretyakov, R.X.Shakurov, T.I.Shamova va boshqalar), boshqaruvni inson shaxsida markazlashtirish uning mohiyatini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining o'ziga xosligi kontekstida ko'rib chiqilgan bunday yondashuvning quyidagi qoidalari o'rganilayotgan ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishda o'ta muhim ahamiyatga egadir:

1. Pedagogik jarayonning ham pedagog, ham bola rivojlanish subyektlari bo'ladigan ta'lim muhitini yaratishga qaratilganligi. Bu quyidagilar zarurligini taqozo etadi: a) maktabgacha ta'lim bolaning har tomonlama rivojlanishi davri sifatidagi o'z qiymati (ahamiyati); b) pedagogga bolalar bilan pedagogik ishni tashkil etishda mustaqillik berish va uning kasbiy o'sishini ta'minlash, o'zini ifodalash ehtiyojlarini qondirish.

2. Boshqaruvning sababiy (motivatsion) va muvofiqlashtiruvchilik asoslarining kuchayishi, shu munosabat bilan quyidagi masalalar muhimlik kasb etadi: a) maktabgacha

ta'lim muassasasi jamoasini birlashtiruvchi va uni sifatli mehnatga undovchi qadriyatlar, me'yorlar, an'analar tizimi sifatida tashkiliy madaniyatni shakllantirish; b) vazifalararo muvofiqlashtirishga asoslangan sifatni takomillashtirishning tashkiliy mexanizmini loyihalashtirish.

3. Rahbar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasining uzluksiz rivojlanishini, uning realdan potensial ta'lim sifatiga o'tishini rag'batlantiradigan samarali boshqaruv usulini amalga oshirish.

**Dasturiy-maqsadli yondashuv** (A.G.Aganbegyan, V.G.Afanasev, E.P.Golubkov, V.A.Irikov, K.Kostov, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, I.S.Ladenko, G.S.Pospelov, K.Simeonova, N.Stefanov, I.K.Shalayev va boshqalar), boshqariladigan obyekt parametrlarini berilgan dastur asosida o'zgartirish mumkinligini taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishda quyidagilarni dasturiy-maqsadli yondashuvning muhim asosiy qoidalari deb hisoblash mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqishda maqsadni qo'yishning yetakchilik rolini e'tirof etish.

2. Maqsadlarning ko'p darajaliligini asoslash, uni vazifalarga moslashtirish zarurligi, ularning mantiqiy va hajmiy nisbatlarini ochib berish.

3. Texnologik sxemani amalga oshirishni dasturiy-maqsadli yondashuvning mexanizmi sifatida ajratish, u tashqi va ichki vaziyatni tahlil qilishning o'zaro bog'liq bosqichlarini, maqsadlarni shakllantirishni, ularga erishish dasturlarini ishlab chiqishni, uning bajarilish muvaffaqiyatini baholashni o'z ichiga oladi..

**Kvalimetrik yondashuv** (G.G.Azgal'dov, A.N.Glichev, A.I.Subetto va boshqalar) sifatni o'lchashning prinsipial muhimligini asoslaydi hamda o'lchash-baholash funksiyalarining mazmuniga va usullariga talablarni qo'yadi.

Ishlab chiqilayotgan boshqaruvning nazariy asosini qurish uchun quyidagilar alohida ahamiyatga egadir:

1. Kvalimetriyaning uslubiy prinsiplari (A.N.Glichev).

2. Ijtimoiy qadriyat sifatida, "barkamol shaxs"ni shakllantirishga va rivojlantirishga ijtimoiy ehtiyojlarni to'la darajada qondirish nuqtai nazaridan, ta'lim sifatini baholashga yondashish (A.I.Subetto).

3. Insonparvarlikka yo'naltirilgan kvalitologik shkalalar g'oyasi, ularda "insonning o'zi hisobni boshlash nuqtasi hisoblanadi" (I.A.Kolesnikova) va ular, eng avvalo, bola shaxsini to'laqonli rivojlantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlarni baholashga yo'naltiriladi.

4. Sintetik kvalimetriya mazmuniga nafaqat miqdoriy, balki sifat baholashlarini ham kiritish vositasida uning predmetini kengaytirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi qoida (A.I.Subetto).

**Vaziyatli yondashuv** (G.Kuns, R.Mokler, O'Donnel va boshqalar), aniq vaziyatga qarab, ya'ni mazkur payt davrida muassasaning amal qilishiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy holatdan kelib chiqib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uning asosi hisoblanadi.

Biz tadqiq qilayotgan muammo doirasida vaziyatli yondashuv ta'lim sifat, samaradorligini takomillashtirish nazariyasi va amaliyotini maktabgacha ta'lim muassasasida vujudga kelgan holatlarga bog'liq ravishda qo'llanish zaruratiga yo'naltiradi hamda quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Ta'lim jarayoni sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy tashqi va ichki omillarni aniqlash.

2. Sifatni takomillashtirishda ta'lim jarayoniga sifat omillarining ta'siri darajasini aniqlashga, bu omillarning ta'siri oqibatlarini bashorat qilishni amalga oshirishga hamda vaziyat talablariga mos asoslangan qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishga imkon beruvchi monitoringning o'ziga xos ahamiyatini tushunish.

3. Ta'lim jarayoni subyektlarining aniq vaziyatga eng ko'p muvofiq keluvchi, binobarin, maktabgacha ta'lim sifatining maqsadlariga erishish uchun eng samarali boshqaruv usullarini tanlashga yordam beruvchi kvalitologik malakasini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muammolariga bag'ishlangan tadqiqot natijalarini o'rganish shuni aniqlashga imkon berdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish muammosi eng kam ishlangandir. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday tizim fanlararo asosda, falsafa, kibernetika, sinergetika, sistemologiya, boshqaruv nazariyasi, kvalimetriya, psixologiya, pedagogika kabi fanlar sohasidagi bilimlarni jalb qilgan ishlab chiqilishi kerak.

Boshqaruv obyekti sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi sifatining mohiyati va maktabgacha ta'lim muassasani uni shakllantirishning alohida sohasi haqidagi bilimlarsiz sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish mumkin emas. Shu sababli, eng avvalo, maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini tahlil qilish va sifatni ta'minlaydigan ta'lim tashkiloti sifatida maktabgacha ta'lim muassasasining o'ziga xosliklarini o'rganish kerak. Buning uchun "sifat" kategoriyasi kontekstida maktabgacha ta'limning metodologik va nazariy asoslarini aniqlash hamda ularning asosida o'rganiladigan boshqaruvning dastlabki asosi bo'luvchi integral modelni ishlab chiqish lozim.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARINI O'ZIGA XOS IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Ma'lumki, bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologiya, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalaridagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi, ushbu o'zgarishlar pirovardida jamiyat uchun zarur kasblar majmuining ham o'zgarishiga olib keladi. Xozirgi dunyoda sodir bo'layotgan tezkor o'zgarishlar bolalarning doimiy ravishda yangi narsalarni o'zlashtirishini, butun umri davomida o'qishini taqozo qiladi.

Bugungi kun yoshlardan XXI asr muammolarini hal etish uchun hayotiy zarur qobiliyatlar asosini yaratishga harakat qiladi. Bunday qobiliyatlar jumlasiga biz quyidagilarni kiritamiz:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muamolarni qo'yish va hal etish;
- ijodni, fantaziyani va ixtirochilikni namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar me'yordagi rivojlanishning borishi

to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunda tarbiyachilar shuni yodda tutishlari lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o'tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o'zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o'ziga xos individual farqlar bo'lishi muqarrar.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti- harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi<sup>1</sup>.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat

---

<sup>1</sup> Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davriari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118 b.

natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan iborat.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Endi har bir davrni alohida ko'rib chiqamiz.

**Uch yoshdagi bolalarning umumiy tavsifi.** 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar bir vaqtning o'zida tajovuzkor, muloyim va qo'pol bo'lishlari mumkin. Ular o'zlarini o'rab turgan borliqni tushunishga harakat qiladilar. Ularda o'z shaxsiy xayollarini aniq borliqdan ajratishlari qiyin kechadi. Ular o'z harakatlari ma'lum oqibatlarga olib kelishini tushuna boshlaydilar va o'zlari uchun xulq-atvor cheklashlarini o'rnatishga o'rganadilar. Bunda ana shu yoshdagi guruh bolalarida boshqalardan farq qiluvchi quyidagi holat namoyon bo'ladi: hozircha ular tobe va itoatkor ekanligini namoyon qilayotgan bo'lsalar, bir daqiqadan so'ng talabchan va inijq bo'lib qoladilar.

Uch yoshli bolalar nutq ko'nikmalarini jadallik bilan rivojlantiradilar, bunda ular bolalar uchun xos bo'lgan tildan me'yoriy tavsifiy tilga o'tib-qaytib turadilar. Ular qaysidir topshiriqni hal qilish chog'ida yoki o'yin paytida tez-tez ovoz chiqarib o'zlari bilan o'zlari gaplashadilar. Bunday yoshdagi bolalarda katta quvvat (energiya) zahirasi bo'ladi, biroq ular bu quvvatni uzoq vaqt bir ishga jalb eta olmaydilar. Odatda bunday bolalar tez-tez bir mashg'ulotdan ikkinchisiga o'tib turadilar. Ular alohida holda va guruhda o'ynaydilar. Oila a'zolarini hisobga olmaganda tarbiyachi bola mustahkam bog'lanish hissini tuyadigan birinchi katta yoshli kishidir.

**To'rt yoshli bolalarning umumiy tavsifi.** 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar ko'pincha o'zlarini har narsaga qodir his etadilar va har qanday yangi muammolarni hal etishga kirishadilar. Boshqa kichik yoshdagi bolalardan farq qilgan xolda bu yoshdagi bolalar barcha qatnashchilarga o'zaro tushunarli bo'lishini talab etadigan murakkab guruh o'yinlarini o'ynaydilar. Ular hamdardlik namoyon etadilar, o'zlari va boshqa kishilarning his-tuyg'ulari to'g'risida so'zlay oladilar.

Bu yosh guruhidagi bolalar cheklashlarni tekshiruvdan o'tkazadilar va shunga mos tarzda o'z xulq-atvorlarini o'zgartiradilar. Ularning o'zlari osongina yolg'on gapiradilar, biroq kattalar yolg'on gapirganlarida qattiq jahllari chiqadi.

4 yoshli bolalarning diqqatni bir yerga jamlab olishlari mumkin bo'lgan oraliq vaqt avvalgiga nisbatan qisqa bo'lsa-da,

ular muammolarni hal etish uchun ma'lum tajribaga egadirlar. Agar mashg'ulot mavzui ular uchun qiziqarli bo'lsa bolalar diqqatni bir joyga uzoq vaqt jamlab tura oladilar. Bundan tashqari ular bir mashg'ulotdan olgan tajribalarini boshqa mashg'ulotga ko'chirgan holda ularni umumlashtirish qobiliyatiga egadirlar.

Bu yoshdagi bolalarni o'z tanalari va boshqalar tanalarining jismoniy holati juda qiziqtiradi: ular tanalaridagi tirnalinsh va shilinishlardan juda xavfsirashlari, tashvishlanishlari mumkin. Ular ko'p narsalardan qo'rqadilar, qo'rqinchli tushlar ko'radilar.

4 yoshli bolalarda umumiy harakatlanish (motorika) sohasidagi ko'nikmalar tez rivojlanadi, ular jismoniy faollikni doimiy ravishda namoyish etadilar. Ularning quvvati tugamaydiganday tuyuladi. Ularning lug'at zahirasi kengayadi, bolalar to'g'ri tuzilgan jumlar bilan gapiradilar va ancha murakkab grammatik qurilmalardan foydalanadilar.

#### **Besh yoshdagi bolalarning umumiy tavsifi**

5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar aksariyat hollarda yoqimtoy bo'ladilar va kattalarga yoqishga intiladilar. Ular yetarli darajada ijtimoiylashgan va bir vaqtning o'zida 3-4 nafar tengdoshlari bilan o'ynaydilar. Bolalar bu yoshda o'yin bo'yicha o'rtoqlari o'z hamjinslari bo'lishini ma'qul ko'radilar. Ularda yumor tuyg'usi mavjud bo'lib, tez-tez jo'ngina hazillarni o'ylab topadilar va ularni qayta-qayta takrorlaydilar. Ularga o'ynash yoqadi, biroq, ular albatta g'olib bo'lishni istaydilar va ustunlikka erishish uchun o'yin davomida o'z manfaatiga tez-tez qoidalarni o'zgartiradilar.

Bunday yosh guruhdagi bolalar diqqatni uzoq vaqt bir joyga jamlashlari mumkin. Ularda fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari nisbatan yuqori darajaga ko'tariladi. Bola topshiriqni bajarishga chog'lanishi mumkin va uni belgilangan talablar asosida uddalashga harakat qiladi. Besh-olti yoshli bolalarda nutq yaxshi rivojlangan bo'ladi: ular gapirishni, so'z o'yinlarini yaxshi ko'radilar va ularni aniq ifodalaydilar. Ular ancha murakkab jumlar bilan gapiradilar va nutqiy xatolarni o'zlari tuzatadilar.

Bunday yosh guruhidagi bolalar jismoniy jihatdan olganda juda harakatchan bo'ladi, ular jismoniy mashqlar va muntazam

sport mashg'ulotlariga qiziq boshlaydilar. Ularning harakatlanish (motorika) ko'nikmalari takomillashadi: ular kiyinish, qog'ozdan har xil shaklchalar qirg'ish, rasm solish va yozishda kamroq qiyinchilik sezadilar.

Bola o'zining o'tmishiga tushungan holda munosabatda bo'la boshlaydi, unga "ular hali kichkina bo'lgan" vaqtdagi turli tarixlarni aytib berish yoqadi.

Bolalar 5-6 yoshlarida navbati bilan hali ko'ngilchanlik, hali ko'ngilsizlikni namoyish etadi. Ular fikrini so'zma-so'z va aniq ifodalay oldadilar, ularga tashkiliy tizimi va davomiylik yoqadi.

**Bolalarning me'yoriy rivojlanish mezonlari  
2-3 yosh (24-36 oylar)**

Harakatlanish ko'nikmalari		Kommunikativ ko'nikmalar		Kognitiv ko'nikmalar		O'ziga o'zi xizmat ko'nikmasi	Ijtimoiy ko'nikmalar
Umumiy harakatlanish (motorika)	Nozik harakatlanish (motorika)	Nutqni tushunish	Faol nutq	Oddiy buyruqlarni bajaradi (masalan: "menga to'p ber", "botinka va paypoqni ol"). Suradi kitobchalarni tanlaydi va ko'z tashlaydi, chizilgan narsalarning nomini aytadi, bitma rasmda bir qancha narsalarni ajratadi. Qo'lni tekizgan holda 1-3 narsani sanaydi.	Oddiy buyruqlarni bajaradi (masalan: "menga to'p ber", "botinka va paypoqni ol"). Suradi kitobchalarni tanlaydi va ko'z tashlaydi, chizilgan narsalarning nomini aytadi, bitma rasmda bir qancha narsalarni ajratadi. Qo'lni tekizgan holda 1-3 narsani sanaydi.	O'ziga o'zi xizmat ko'nikmasi	Ijtimoiy ko'nikmalar
To'g'riga yaxshi yuguradi Joyida sakraydi (oyoqlar bir joyda) Qo'llab-quvvatlab turgan paytda bir oyoqda turadi. Oyoq uchida yuradi. Turgan to'pni oldinga qarab tepadi. Balandligi 15 sm. il to'siqdan sakrab, ikki oyoq'ni bir qilgan holda yerga qo'nadi. To'pni boshi uzra irtadi.	4 ta katta munchoqni ipga tiza oladi. Kitob bellarini bittalab varaqtlaydi. Qeychi bilan qirqadi. Qalaumni mushitta emas, barmoqlari bilan tutadi. Ko'p kollarda bir qo'ldan da'fil foydalanadi. Aylana shaklidagi, tik va gorizontal chiziq'larni chizva oladi. Loyni zuvalaydi,	Aytaladigan narsalarning shaklini ko'rsatadi. Narsani uni bajaradigan vazifasi ifodalinishi bo'yicha aytishi mumkin. "Nima" va "qayerda" savollarni tushunadi. "Yo'q" "qila olmayman", "qilmayman" degan inkor so'zlarni tushunadi. 10-15 daqiqa	Ikki-to'rt so'zli jumalarni ayta oladi. "Nima" va "qayerda" so'zlari bilan beradi. Inkor so'zlari bilan jumla tuzadi (masalan: ocha bilimayman). Ehtiyoj va istagini ayta oladi. Ko'plik son shaklidan foydalanadi.	Oddiy buyruqlarni bajaradi (masalan: "menga to'p ber", "botinka va paypoqni ol"). Suradi kitobchalarni tanlaydi va ko'z tashlaydi, chizilgan narsalarning nomini aytadi, bitma rasmda bir qancha narsalarni ajratadi. Qo'lni tekizgan holda 1-3 narsani sanaydi.	O'zi nima ish qilayotganligini so'zlar bilan qisqa ifodalashi mumkin. Harakatlar bilan kattalar ishini ifodalaydi (masalan: uy bekasi o'yini o'ynaydi). Cheklangan e'tibor hajmiga ega. Asosan tajribeli yo'l bilan ta'lim oladi. 5 ta o'yinchoqdan vazifasi	Qo'shiqdan foydalanadi, undagi suyuqlikni kam chayqaldirib to'kadi. Bolalarga mos hajmdagi dastali idishdan suv ichadi. Tugmasiz oddiy kiyimlarni echadi. Tugmali paltoni kattafor yordamida kiyadi. Yordam bilan qo'lni yuvadi va artadi. Yordam bilan hojatxonadan foydalanadi. Ko'p vaqtini oladi. Agar	Bolalarni kuzatadi, ular bilan qisqa muddat o'yiniga kirishadi. 2 muqobil holat bo'lganda tanlay oladi. O'z shaxsiy mulkini himoya qiladi. Uyda o'ynashni boshlaydi, oddiy rol o'yinlarida qatnashadi. Guruhning oddiy harakatlari (kuyilash, sakrash, o'ynash) 5-10 daqiqa qatnashadi. Jinsi ajrata oladi. Agar

	qoradi, bukadi. Tutib qolish va qo'yib yuborishni nazorat qiladi (narsalarni bir- birining ustiga teradi, kichik narsalarni tuyrukka tiqadi).	davomida oddiy ertaklarni qiziqish bilan tinglaydi va yana bir marta o'qishni so'raydi. Narsalarni ichiga, ustiga, ostiga, yon tomonga joylashtiradi. Suratlarda harakat ifodalanishini ko'rsatadi (ovqatlanish, uxlash, yugurish).		4 xil rangni tanlaydi. Tanish bo'lmagan o'yinchoq bilan o'ynashni sinab ko'radi.	bo'yicha foydalanadi. Katta-kichik narsalarni ko'rsatadi.	nazorat qiladi. O'yinchoqlarni narsalarni yig'ishda kattalarga yordam beradi.	kimdir esatsa, navbatga mushakam riyoza qiladi. O'z tashabbusi bo'yicha yakka holda 15 daqiqada o'ynaydi. Harakat, so'z, imo-ishi ora vositasida turli his-tuyg'ularni ifodalay oladi.
--	---	--	--	---	---	--	--

3-4 yosh (36-48 oylar)

Harakatlanish ko'nikmalari		Kommunikativ ko'nikmalar		O'ziga o'zi xizmat ko'nikmasi	Ijtimoiy ko'nikmalar
Umumiy harakatlanish (motorika)	Nozik harakatlanish (motorika)	Nutqni tushunish	Faol nutq		
<p>To'siqdan aylanib o'tadi. Bir oyog'ida 5-10 sekund tura oladi (muvozanatni saqlaydi). Bir oyog'ida sakraydi. G'ildirakli o'yinchoqlarni sudraydi, itaradi, boshqaradi.</p>	<p>9 kubikdan minora quradi. Loydan shar, kolbasache-lar, pirojkalar yasaydi. Oddiy ishlarni bajarishda ikki qo'li bilan harakat qiladi (banka qopqog'ini burab ochadi, tuxum qorgichning dastagini tutadi va aylantiradi, mix va knopkalarni qo'porib oladi.) Qog'ozni qirqadi.</p>	<p>"Agar..." o'sha" va "shuning uchun" so'zlarini tushunadi. 2-3 o'zaro bog'langan buyruqlar-ni birin-ketin bajaradi. "Kel, mug'ombirlik qilamiz", deyilsa, uni tushunadi.</p>	<p>4 rangni aytib bera oladi. Kubiklarni yoki xalqani ustun-gacha ataylab joylashtira oladi. Muammolarni farqlay oladi va aniqlaydi. 2-3 elementdan iborat badiiy mashqlarni bajaradi. Oddiy javoblarni kutgan xolda nimaga va qanday degan savollarni beradi. 7 ta narsani sanay oladi. O'z yoshini biladi. Agar</p>	<p>Narsalarning vazifalarini yaxshi anglaydi va guruhlashni yaxshi bajaradi (qo'g'irchoq saqlanadigan mebelni o'yinchoqlar uyida to'g'ri joylashtirishni biladi, rasmlarni kategoriyalar i bilan joylashtiradi) O'tmish va hozirni farqlay boshlaydi. Masalan:</p>	<p>10-15 daqiqa kichik guruhlarni g'ishda g'atnashishga ruxsat so'raydi (Kattalar rahbarligi ostida) 15 daqiqa 2-3 bola bilan o'ynaydi (ular bilan tez-tez o'zaro harakat qilgan holda). Istagi amalga</p>

			aytilishda hali xatolar mavjud. "Nima", "kim", "nima uchun" degan savollar beradi. Yuqoridagi va savollarga javob beradi.	uning vazifalari berilsa, tananing 6 a'zosini aytib beradi. Narsalarni bir belgisi bo'yicha guruhlashtradi (rangi, shakli, hajmi). Birga ishlatiladigan narsalarni jufti bilan tanlab oladi va aytib beradi (tish shchetkasi nima uchun kerak?)	Kecha biz istiroxat bog'iga bordik. Bugun biz kutubxonaga boramiz.	O'yinchoqlar, matenallar va ovqatni baham ko'radi. Butun bir sahnani o'z ichiga oluvchi mazmunli rolli o'yin boshlanadi (sayohat, uyda o'yin, hayvonlar bilan o'yin) Boshqalarning narsalaridan foydalanishga ruxsat so'raydi.	oshishi yoki oshmasligin i 5 daqiqa kutadi. Guruhda xulq-atvorning 3 qoidasini mustahkam bajaradi.
--	--	--	---	---	--	--	--

**4-5 yosh (48-60 oy)**

Harakatlanish ko'nikmalari		Kommunikativ ko'nikmalar		Kognitiv ko'nikmalar		O'ziga o'zi xizmat ko'nikmasi	Ijtimoiy ko'nikmalar
Umumiy harakatlanish (motorika)	Nozik harakatlanish (motorika)	Nutqni tushunish	Faol nutq				
Tovon bilan orqaga yuradi. Yiqitmasdan oldinga 10 marta sakraydi. Tiqma to'pni boshqaga 1-2 m masofadan irg'itadi. Tennis to'pini 1 metr masofadan itib oladi.	Chiziq bo'yicha to'g'ri qirg'adi. Kvadratdan nusxa ko'chirma oladi. Bir pecha bosma bosh harflarni ifodalaydi. Barmoq o'yinlarida alohida barmoqlar bilan harakat qiladi. Oddiy, bilib bo'ladigan rasmchalarni chizadi. Chaplaydi va yelimlaydi.	3 ta bir-biriga aloqasiz buyruqlarni to'g'ri tartibda bajaradi. Solishtirishni tushunadi (chiroyli, chiroyliroq, o'ta chiroyli). Nutqiy ko'rsatmalar ni o'yinda mujassamlashtiradi. Unga bayon etilgan voqealarni izchilligini tushunadi	Qachon, qanday, tumaga savollarni beradi ("Men shokoladni, pirojniyini va sutni yaxshi ko'raman") jumlasini birlashtiradi. Shuning uchun va uchun so'zlaridan foydalanib, sababiyat to'g'risida fikr yurgizadi. Doimiy bo'lmagan fe'l va otlardan foydalanadi. Tanish otlarga aniqlik kiritadi.	Qo'nyadosh so'zlarni tanlay oladi. Odaming tanish mumkin bo'lgan bosh qismini, qo'llarini, oyoqlarini (qismini) chizadi. Bu qismlarni aytib beradi va o'zida ko'rsatishi ham mumkin. Tushunarli bo'lgan rasmlarni chizadi, aytadi va izohlab beradi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan	O'z shahri va ko'chasini biladi. Diqqat hajmi oshadi. Kattalarning kuzatish va ularni eshitish, shuningdek, sinab ko'rish yo'li bilan o'rganadi. Diqqati yengil bo'linadi. Vaqt to'g'risidagi tasavvuri kengayadi. Kecha, o'tgan hafta, allaqachon,	Pichoq bilan yumshoq oziq-ovqat mahsulotlarini kesadi va surtadi. Botinkasi ipini o'tkazadi. Kattalar bo'lmagan paytda o'zi kiyina oladi. Agar eslatilsa burrini qoqadi. Nazorat ostida tishni tozalaydi. Eslatish bilan kundalik maishiy topshiriqlardan birini	Oddiy stol usti o'yinlarini o'ynaydi. Mavzuli-rolli o'yin yanada aniqroq va qiziqqa qirvoq bo'lib qoladi, o'yinda har bir narsa, vaqt, kenglik hisobga olinadi. Almashirish, ishonirish va muhokama qilish yordamida tengdoshlar bilan ziddiyatlarni hal etadi. Yaqindagi voqealar, taassurotlar to'g'risida

		<p>(masalan: "Dastlab do'konga boramiz, keyin pirog pishirishimiz mumkin, ertaga esa uni yeymiz"). Orallig'ida, ustida, ostida, balandida, pastidagini ko'rsatadi.</p>	<p>Tildan foydalanishning turli-tumanligini namoyish etadi (axborot olish, axborot uzatish, fantaziya qilish, fikrni ifodalash)</p>	<p>4 ta misolni keltirishi mumkin (muz-sovuq, olov-issiq). Hodisalarning yoki hikoyaning nima bilan tugashini o'ldindan aytib beradi. Ayrim harf va raqamlarni aytadi.</p>	<p>bugun, ertani farqlay oladi. Narsalar sonini aniq ko'rsatadi (1-5). Ertakdagi 3 ta asosiy bor gapni aytib beradi.</p>	<p>bajaradi.</p>	<p>so'zlab beradi. Tengdoshlarinimg' his-tuyg'u sabablarini ifodalab beradi. Kuchlar bo'yicha topshiriqlarni yaxshi uddalaydi. Begona narsalarga ehtiyotlik bilan muomalada bo'ladi. Birirchi tanbehdanog'noo'rin harakatlarni bas qiladi.</p>
--	--	--	---	--	--	------------------	--

**5-6 yosh (60-72 oylar)**

Harakatlanish ko'nikmalari		Kommunikativ ko'nikmalar		Kognitiv ko'nikmalar		O'ziga o'zi xizmat ko'nikmasi	Ijtimoiy ko'nikmalar
Umumiy harakatlanish (motorika)	Nozik harakatlanish (motorika)	Nutqni tushunish	Faol nutq	Tarixni kitobchadan zexniy aniqlikda aytib beradi. 1 dan 10gacha bo'lgan raqamlar va harflarning ko'pini aytib beradi.	Soat vaqtini kun tartibi bilan solishtira boshlaydi. 10 ta ma'lum so'zni o'qiydi. Diqqat hajmi sezilarli darajada kengayadi. O'yinda ham kattalar ko'rsatmasi izidan borib ta'lim oladi.		
Brusda oldga, orqaga, yonga yuradi. Oyoq uchida yengil yuguradi. 2 metrga sakrashi mumkin. Arqonda sakraydi. O'zi tebranadi.	Oddiy shakllarni qurqadi. Uchburcha kdan nusxa ko'chira oladi. Bosma harflar bilan o'z ismini aniq qilib yozadi. 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni yozadi. Konturni chetiga chiqmasdan bo'yaydi.		Bola grammatikasi kattalar grammatikasidan oz farq qiladi. Ot bilan fe'lni kelishtirishda va fe'llarning noto'g'ri shaklidan foydalanishda yana xatolikka yo'l qo'yadi. So'zlashuvni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Yaqinlar, do'stlar va notanish	Tarixni kitobchadan zexniy aniqlikda aytib beradi. 1 dan 10gacha bo'lgan raqamlar va harflarning ko'pini aytib beradi.	Soat vaqtini kun tartibi bilan solishtira boshlaydi. 10 ta ma'lum so'zni o'qiydi. Diqqat hajmi sezilarli darajada kengayadi. O'yinda ham kattalar ko'rsatmasi izidan borib ta'lim oladi.	To'liq kiyina oladi. Poyabzali iplarini bog'laydi. Mustaqlil tarzda tishini tozalaydi. Ko'chani Saryog' kesib o'tadi. qutisi qopqog'ini yopadi. Sochini taray oladi.	O'zi do'stlar orttiradi. O'z muammolarini o'zi yaxshi hal etadi. Musobaqa o'yinlari o'ynaydi. Birgalikda qarorlar qabul qilish, rollarni bo'lish, qoidalariga amal qilish bilan guruh o'yinlarida qatnashadi. Do'stlarini maqtaydi va qo'llab-quvvatlaydi, yordam beradi. O'zining noyobligi va layoqati haqida ijobiy fikrlarni
egallashning ikkita murakkab ko'nikmasini namoyish etadi (to'pni yerga urish va tutib olish, to'pni qattiq urish)							

	<p>Qalamni to'g'ri tutadi. Asosiy ish yurituvchi qo'l aniqlanadi.</p>		<p>kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'ladi. Odatda 10-15 daqiqalik guruh faolligi paytida bitta savolga javob beradi. Ertaklar bilan mashg'ul bo'ladi.</p>	<p>sonni mazkur besh narsaga qo'shsak (yoki ayirsak) nechta bo'ladi degan savolga javob beradi. Ayrimlarni, ko'pchilikni hammani birinchi, o'rtta, oxirgini ko'rsatishi mumkin.</p>	<p>voqealar terminlariga qo'shib olishni boshlaydi (xayit bayrami ikki dam olishdan so'ng bo'ladi). Narsalarning bir-biriga nimasi bilan farq qilishini ko'rsatishi mumkin. O'n va undan ortiq elementlardan qirqib olingan rasmlarni tuzadi.</p>		<p>aytadi. O'ziga yarasha topshiriqlarni o'zi hal eta oladi. Mustaqil faoliyat bilan 20 daqiqaga shug'ullanadi. Xulq-atvor qoidalarini o'rnatadi va besh qoidaga dolimiy ravishda amal qiladi.</p>
--	---	--	--	---	---	--	--

## ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA TARBIYACHI MAHORATI

Muhim davlat vazifasini – “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablarini amalga oshirayotgan zamonaviy MTM tarbiyachisining vazifalari, uning ijodiy faoliyati asosan amaliy ishda, pedagogik jarayonlarni egallash jarayonida o‘zib-rivojlana boradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida: Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy xususiyatlariga ega bo‘lgan shaxslargina pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega”<sup>1</sup>, – deb ta’kidlangan. Bu hujjat talablarini bajarish uchun pedagoglarda kasbiy mahorat va kompetentlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi.


Ayni vaqtda pedagogning kasbiy mahorati ularda umumiy madaniyat va aql-zakovatning yuqori darajada rivojlanganligi, o‘zining pedagogika va psixologiya fanlari sohasida bilimlar bilan bog‘langanligi, o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasidan erkin va mustaqillik bilan foydalana bilishi, o‘quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallaganligi, mutaxassisligiga doir keng va chuqur bilim va tajriba bo‘lishi kabilar bilan e’tirof etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir.

“Sifat” kategoriyasi kontekstida maktabgacha ta’limning metodologik va nazariy asoslarini aniqlab, ularning asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish jarayonining modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

Ta’lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim muassasalardagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq.

<sup>1</sup> Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori // O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 5-modda. T.: O‘zbekiston, 1997 B.21



**2-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini takomillashtirish jarayonining modeli**

**Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar jadvali.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar ertalab 9.30 dan boshlanib, davomiyligi kichik guruhlarda 10-15 daqiqagacha, katta va tayyorlov guruhlarida 25-30 daqiqadan oshmasligi darkor. Mashg'ulotlar oralig'ida bolalar bilan tetiklashtiruvchi, charchoqni oluvchi o'yinlar o'tkaziladi. Har bir yo'nalish bo'yicha oy oxirida bolalar bilan mujassam - nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi va bolalarning dastur vazifalarini qay darajada egallaganliklari tahlil qilinadi. 1-kichik guruh mashg'ulotlar jadvaliga kiritilgan "Ta'limiy o'yin-mashqlari"da (sensor tarbiya) zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan biri - Mariya Montessori metodikasini keng qo'llash tavsiya etiladi.

I-kichik guruhda 0,5 dan taqsimlangan atrof olam bilan tanishtirish mashg'uloti - tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti bilan, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'uloti - loy mashg'uloti bilan, qurish-yasash mashg'uloti esa bir hafta yirik qurilish jihozlari, bir safar mayda qurilish jihozlari bilan almashtirilib o'tiladi.

II-kichik guruhdan boshlab jadvalda 0,5 dan taqsimlangan tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti - badiiy adabiyot bilan, qurish-yasash mashg'uloti esa applikatsiya mashg'uloti bilan almashtirilib o'tiladi.

Katta-tayyorlov guruhlarda qurish-yasash mashg'uloti qo'l mehnati bilan almashlashtirilib o'tiladi. O'qish va savodga tayyorgarlik vazifalari o'z ichiga kichik guruhda asosan tovushlarni to'g'ri talaffuz etish mashqlarini oladi.

O'rta, katta guruhlarda esa o'qish va savodga tayyorgarlik vazifalari nutq o'stirish mashg'uloti vazifalariga qo'shib olib boriladi.

Tayyorlov guruhda esa alohida savodga tayyorgarlik mashg'uloti kiritiladi.

### **Tarbiyachining ta'lim-tarbiyaviy ish rejasining shakli**

Tarbiyachi oylik ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzadi va metodistga tasdiqlash uchun beradi.

Oylik ish reja daftari quyidagicha to'ldiriladi:

- ish rejaning titul varag'i;
- tasdiqlangan xaftalik mashg'ulotlar jadvali;
- bir oylik mashg'ulotlarning istiqbol rejasini;

- har 15 kunga mo'ljallangan 2 ta ertalabki badantarbiya mashqlari kompleksi;

- ota-onalar bilan ishlash rejasi;

rejaning asosiy qismida - kundalik faoliyat bayoni yoritiladi.

Kundalik ish reja. Kundalik faoliyatning yuritilishi.

Kundalik reja quyidagicha bayon etiladi:

- ertalabki soat;

- Mashg'ulotlar;

- Sayr;

- Kunning 2-yarmi;

- Kechki sayr.

Kundalik reja. Ertalabki soat.

1. Suhbat (mavzu);

2. O'yinlar (mavzu);

3. Mustaqil faoliyat;

4. Mehnat;

5. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash.

6. Badantarbiya

Mashg'ulotlar

1. Mashg'ulot yo'nalishi, mavzu va maqsadi.

2. Zaruriy jihoz va ko'rgazmali qurollar.

3. Mashg'ulotning borishi (tarkibiy qismlari)

Mashg'ulotning tarkibiy qismlari (misol tariqasida berilgan)

1. Kirish;

2. Savol-javob;

3. Surat ko'rish;

4. Hikoya tuzish;

5. O'yin;

6. Umumlashtirish;

7. Yakunlash.

Sayr qismlarining ketma-ketligi olingan mavzuga qarab o'zgarishi mumkin

Sayr

1. Kuzatish.

2. Harakatli o'yin.

3. Ixtiyoriy o'yinlar.

4. Mehnat.

5. Tinch o'yin (agar guruhda 20 tadan kam bola bo'lsa yakka tartibda ishlashni rejalashtirish mumkin)

Kunning ikkinchi yarmi

1. Yakka tartibda ishlash.

2. Ifodali o'qish va suhbat.

3. O'yinlar (ta'limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, sahnalashtirilgan).

4. Ko'ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta.) Kechki sayr

1. Ixtiyoriy kuzatish;

2. Ixtiyoriy o'yinlar;

3. Ota-onalar bilan ishlash.

### **Kundalik reja bayonining yozilishiga qisqacha sharh**

• ertalabki soatda qilinadigan pedagogik ishning asosiy vazifasi bolalarda tetik, quvnoq kayfiyat uyg'otishdir. Bunda bola faoliyati erkin bo'ladi, bolaning istagi va qiziqishiga tayaniladi, faoliyatlarning shakli va mazmuni qiziqarli bo'lishi ta'minlanadi. Tarbiyachi har kuni ertalabki soatda bolalarning birlamchi tibbiy ko'rik asosida qabul qiladi, ota-onalar bilan suhbat olib boradi, badantarbiya mashqlarini o'tkazadi.

• Kundalik faoliyat bayonida ertalabki soatda tarbiyachi bolalar bilan belgilangan mavzu yuzasidan qisqa suhbat uyushtirishi ko'rsatiladi, asosiy o'rinni bolalarning o'yin faoliyati uchun ajratiladi. Ijodiy o'yinlarni, tinch o'yinlarni (qurish-yasash, rasmi kitoblarni tomosha qilish) tashkil etish rejalashtiriladi.

• Rejada bolalarning mehnat faoliyati keng yoritiladi. Mehnat tarbiyasining to'rtta vazifalari besh kunga bo'linib yoziladi. Navbatchilik har bir kun uchun alohida rejalashtirilmaydi. Rejada navbatchilikka yangilik kiritilsa, navbatchilik vazifasi murakkablashtirilsa yoki sharoitlar o'zgarsa, yangi mazmuni alohida yoritiladi.

• Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning qiziqishiga va kayfiyatiga bog'liq. Har bir bola erkin holda o'zi istagan faollik markazini tanlashi va u yerda ishlashi mumkin. Tarbiyachi bolalarni kuzatishi va zarur holda unga yordam ko'rsatishi lozim.

- Tarbiyachi unutmashligi kerak: faollik markazida bolani majburlamaslik; bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib berish. Eng asosiysi faollik markazida hamma narsa bola uchun qiziqarli bo'lishi lozim.

- Mashg'ulotning maqsadida tarbiyachi bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya vazifalarni ko'rsatadi, bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini hajmini aniq belgilaydi. Mashg'ulotning borishi to'liq yozilmay, manbaning muallifi, ishlanmaning betini ko'rsatib o'tish kifoya. So'ngra zaruriy jihoz va ko'rgazmalarni ko'rsatadi. Mashg'ulot ishlanmasi yozilgan metodik qo'llanma yo'q bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulot ishlanmasini yozishi lozim.

### ***Kundalik reja hisobotini yozilishiga qisqacha sharh:***

- Tarbiyachi kundalik hisobot yozmaydi. Mashg'ulot davomida o'tilgan mavzuni o'zlashtirmay qolgan bolalarni yakka ishlash daftariga shu kunning o'zida bu bolalar bilan qachon, qaysi mavzuda yakka ish olib borilishi belgilab qo'yiladi. Tarbiyachi har kuni ertalabki soatda, sayrda, kunning 2-yarmida o'zlashtirmagan bolalar bilan yakka ish olib borishi lozim.

- Tarbiyachi har oyning oxirida nazorat mashg'ulotini tayyorlab o'tkazadi. Nazorat mashg'ulotining tahlili joriy oyning oxirgi kunlarida o'tkaziladi. Mashg'ulot tahlili bo'yicha bayonnoma yozilib, mashg'ulot natijasiga ko'ra har bir tarbiyachiga vazifalar beriladi.

- O'quv yili davomida ikki marta (1-yarim yillik, 2- yarim yillik) Davlat talablari asosida bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Tarbiyachining ta'lim-tarbiya ishini to'g'ri rejalashtirishi avvalo faoliyat turlari bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida: maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, hamda bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash yo'nalishlari bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash o'quv yili bo'yicha

1-yarim yillik (sentabr, oktabr, noyabr, dekabr), 2-yarim yillik (yanvar, fevral, mart, aprel, may) bo'yicha olib boriladi.

- Tarbiyachi har oyning oxirida nazorat mashg'ulotini tayyorlab o'tkazadi. Nazorat mashg'ulotining tahlili joriy oyning oxirgi kunlarida o'tkaziladi. Mashg'ulot tahlili bo'yicha bayonnoma tuzilib, mashg'ulot natijasiga ko'ra har bir tarbiyachiga vazifalar beriladi.

- O'quv yili davomida ikki marta (1-yarim yillik, 2- yarim yillik) Davlat talablari asosida bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"<sup>1</sup>da qayd etilganidek, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion tizimda bo'lishi, fikrlashi, vaziyatga ko'ra o'z kasbiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham innovativ g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) tarbiyachilari bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'lib, bu o'z navbatida tarbiyachilarning kasbiy qiziqishlari ko'lamini kengaytirishga, ya'ni ularning adabiyotlar o'qib o'rganishdan to nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi tarbiyachi pedagog muntazam ravishda o'zini-o'zi rivojlantirishi va maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishning katalizatoriga aylanadi, ya'ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy holda, MTMda tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi. Obyektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lim muassasasining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin. Subyektiv omillarga esa ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, MTM faoliyatining rivojlanish jarayoni, tarbiyachilarning bilim, ko'nikma va malakalari,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". - T.: O'zbekiston, 1997

ilmiy salohiyatining rivojlanishi, ta'lim muassasasi salohiyatining o'sishi, boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh etish pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni talab etadi. Chunki MTM tarbiyachisi mehnatining ijtimoiy ahloqiy samaradorligi va obro'si uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu jarayon kasbiy faoliyatga egalik qilishning pedagogik qonun-qoidalariga amal qilishga bog'liq.

MTM tarbiyachilari kasbiy faoliyati jarayonida O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da qo'yilgan vazifalarni bajarishda innovatsion yondashuv ijobiy va samarali natija bera oladi:

1. Tarbiyachilarni ta'limiy vazifalari:

- bolalarda savodxonlikni shakllantirish;  
- o'qish, yozish, sanash, oddiy matematik amallardan xabardor qilish, murakkab bo'lmagan mashqlarni bajartirish jarayonida ma'naviy-ahloqiy, odob sifatlarini shakllantirish.

2. Ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonini to'g'ri tashkil etish.

3. Bolalarni hulqida, xatti- harakatlarida namoyon bo'ladigan salbiy odatlar va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish.

4. Bolalarni jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etishda ota-ona va tibbiy xodimlar bilan hamkorlikni o'rnatish lozim.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida tarbiyachi innovatsion faoliyatiga zarurat tug'ildi. Tarbiyachining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga tarbiyachining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi.

Chunki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgarishlar MTM tarbiyachisi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarbiyachi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu tarbiyachining o'z mustaqillik mavqeini mustahkamlashga, dunyoga, pedagogika faniga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.

Tarbiyachi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmasdan, u pedagogik tajribasining boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu tarbiyachining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.

Tarbiyachi, rahbar va tarbiyalanuvchi hamda ota-onalar o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Shu o'rinda innovatsion faoliyatning quyidagi asosiy funksiyalarni izohlab o'tishimiz lozim:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va ehtiyojlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, tarbiyachi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida tarbiyachi innovatsion faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

– pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabat harakteri o'zgarishi.

Psixologik nuqtai nazardan MTM tarbiyachisi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki tarbiyachilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Masalan, ayrim ota-onalar bolalar bog'chasida bo'lish borasida o'z salbiy tajribalariga ega bo'lib, tarbiyachilar davrasida ba'zan o'zlarini noqulay his qilishadi. Boshqalar esa tarbiyachilar "qanday bo'lishi kerak"ligini hamisha biladilar, deb hisoblaydilar va ular bilan muzokara olib borishga ehtiyoj yo'q, deb o'ylaydi. Shuningdek, tarbiyachilarda ham ba'zan bolalarni qanday tarbiyalash to'g'risida maslahat beradigan ota-onalar bilan aloqada bo'lishga nisbatan salbiy tajriba bo'ladi. Bunday holatlar mo'tadil aloqa o'rnatishga xalaqit berishi mumkin. Oiladan olinadigan ma'lumot qanchalik muhimligi haqida avval boshdan ota-onalar bilan gaplashib olish va buni ularga tushuntirish zarur. Diqqat bilan eshita bilish – ochiqcha muloqotning muhim sharti. "Sardor uyda nima bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radi?" yoki "Madina bolalar bog'chasi haqida sizga nimalarni hikoya qiladi?" kabi ochiq savollarni berish bilan tarbiyachi ota-onalarga o'z bolalari to'g'risida hikoya qilishlari uchun imkon yaratishi, hamda muloqotga kirishar ekan, tarbiyachilar ota-onalar uchun tushunarli, ravshan bo'lgan tildan foydalanishlari va ularga savol berish imkoniyatini berishlari kerak.

MTM tarbiyachisining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat MTM tarbiyachilari mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan yuqoridagi kabi holatlarda muvaffaqiyatli foydalanadilar.

Buning motivlari odatda pedagogik faoliyatdagi muloqot jarayonida tarbiyachi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar MTM tarbiyachilarini qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak, degan

xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, pedagoglar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday tarbiyachilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar.

Muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda MTM xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan. Bular maktabgacha ta'lim muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish respublika o'quv-metodika markazi va viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir.

Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagog kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotni oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir.

MTM tarbiyachisining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar.

Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan, pedagogik mahoratidan, qanday mashg'ulot o'tkazishidan qat'iy nazar barcha MTM tarbiyachilari yaxshilab bilib olishlari lozim. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh etish pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni talab etadi. Chunki MTM tarbiyachisi mehnatining ijtimoiy ahloqiy samaradorligi va obro'si uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu jarayon kasbiy faoliyatga egalik qilishning pedagogik qonun-qoidalariga amal qilishga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lishi nihoyatda muhim. MTM va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lim tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi extimoli ortadi. Tig'iz ish sharoitida oila bilan doimiy aloqa uchun vaqt topish hamisha ham oson emas, lekin tarbiyachilar bolaning muvaffaqiyatlari uchun uni juda muhim deb hisoblashsa, u kundalik ishning bir qismiga aylanadi.

Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi. Bola qaysi yosh davridagi psixologik va fiziologik xususiyatlarini boshdan kechirmasin, ular haddan tashqari o'z oilasiga bog'liq bo'ladi, chunki oila:

- yashashi, ovqatlanishi, kiyinishi, sog'ligi haqida qayg'urish orqali ularning jismoniy sog'-salomatligini;

- mehr-muhabbat, qo'llab-quvvatlash, nima yaxshiyu nima yomonligi to'g'risida doimiy ravishda eslatib turish vositasida his-tuyg'ularining jo'shqinligini;

- muloqot qilish, emaklash, yurish, yugurish, tirmashish, o'ynash, shuningdek, yangi taassurotlar olish imkoniyatlari bilan ularning kamol topishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

MTM tarbiyachilari oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustivor mavqeini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTM tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Bola maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnay boshlaguniga qadar oila unga elementar harakatlardan tortib, to'p uloqtirishgacha bo'lgan ko'pgina narsalarni o'rgatgan xolda ertak eshitishdan zavq olish ko'nikmasini hosil qilgan bo'ladi. Bolaning ilk rivojlanishida oilaning ahamiyatini etarli baholash juda qiyin. Bolalar oilada tarbiyalanadi, unda sodir bo'ladigan voqealar ularga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila, bu - o'z bolalari hayotida doimiy ravishda ishtirok etadigan, ular to'g'risida qayg'uradigan, ularni o'qitadigan, qarorlar qabul qiladigan odamlar.

Oilalar turlicha bo'ladi. Ular kichik, uncha katta bo'lmagan yoki katta, keng bo'lishi mumkin. Ularda ko'plab aka-uka va opa-singillar yoki birgina bola bo'lishi ham mumkin. Ayrim oilalarda bola asrab olingan bo'ladi yoki qarindoshlari bilan yashaydi. Bola ota-onasidan tashqari, amma-xola, amaki-tog'a, bobo va buvi, oilaning yaqin do'stlari kabi ko'plab o'zi uchun hurmatli bo'lgan katta yoshdagi kishilar bilan mustahkam aloqada bo'lishi mumkinligi sababli ota-onalar bilan aloqa o'rnatishni yetarli hisoblamay, bola hayotiga real ta'sir ko'rsatadigan barcha kishilar bilan hamkorlik qilishi kerak.

Bola vositasida oila bilan muloqot qilish - murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o'z bolalarining baxt-saodatidan manfaatdor va ularning yaxshi va mamnuniyat bilan o'qishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a'zolari uning yutuqlaridan xabardor bo'lishni xohlaydilar. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTMdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni mamnuniyat bilan muhokama qilishlari kerak.

Muloqotlar ochiqcha va ishonchli bo'lishi uchun albatta vaqt talab qilinadi. Ayrim ota-onalar MTMda bo'lish borasida o'z salbiy tajribalariga ega bo'lib, tarbiyachilar davrasida ba'zan o'zlarini noqulay his qilishadi. Boshqalar esa tarbiyachilar "qanday bo'lishi kerak"ligini hamisha biladilar, deb hisoblaydilar va ular bilan muzokara olib borishga ehtiyoj yo'q, deb o'ylaydi. Shuningdek, tarbiyachilarda ham ba'zan bolalarni qanday tarbiyalash to'g'risida maslahat beradigan ota-onalar bilan aloqada bo'lishga nisbatan salbiy tajriba bo'ladi. Bunday holatlar mo'tadil aloqa o'rnatishga

xalaqit berishi mumkin. Oiladan olinadigan ma'lumot qanchalik muhimligi haqida avval boshdan ota-onalar bilan gaplashib olish va buni ularga tushuntirish zarur.

Mahoratli MTM tarbiyachisi oilalar bilan aloqa qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:

- Vaqt topadi, imkoniyat yaratadi hamda ota-onalarning o'z fikr-mulohazalari, quvonchlari, tashvishlari va niyatlarini gapirib berishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

- Ko'z-ko'zga tushib suhbat qilish mumkin bo'lgan joyni tanlaydi va ma'lumotlarga hamisha maxfiy sir sifatida munosabatda bo'ladi.

- Oilalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoqlashadilar, binobarin, ularni sir saqlash muhim.

Ishlaydigan ota-onalarda ko'pincha bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo'lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar bog'cha va uy o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish uchun juda muhim.

Yetakchi psixologlarning e'tirof etishlaricha, ko'pgina tarbiyachilar ota-onalar bilan aloqa qilish uchun ular bolalarini bog'chaga olib kelgan yoki bog'chadan olib ketayotgan vaqtdan foydalanishga harakat qiladilar. Bu vaqtda ular ota-onalarga kun mobaynidagi voqealar, bolaning muvaffaqiyatlari to'g'risida xabar berishlari, o'tkazilishi rejalashtirilgan majlis va boshqa narsalar haqida eslatishlari mumkin (lekin bunda bolaning qandaydir muammolari (agar ular bo'lsa) to'g'risida so'z ochmagan ma'qul). Kunning avvali va oxirida ota-onalar bir-birlari bilan muloqot qilishlari, tarbiyachilarga savollar berishlari, uchrashuv haqida so'rashlari, bolalar bilan o'ynashlari, ularga kitob o'qib berishlari mumkin.

Ota-onalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, muloqot uchun norasmiy vaqt belgilanganda uchrashuv jadvali o'zgaruvchan qilib tuzilishi hamda kun avvali va oxiridagi erkin suxbatlashish sharoitiga muvofiqlashtirilishi kerak. Ota-onalarning bog'cha ostonasini hatlab o'tar-o'tmas bolalarini shosha-pisha tashlab ketishlaridan iborat holatlarni kamaytirish uchun shunday tartib o'rnatish kerakki, unga muvofiq ota-onalar bolani guruh turgan yergacha kuzatib kelishlari

va uning boshlanayotgan kunni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashishlari kerak bo'ladi.

Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, tarbiyachilar va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Bolalar bog'chasida guruh deb ataluvchi uyushmada hurmat zarur tarkibiy element hisoblanadi. Tarbiyachilar ular bolalardan kutadigan o'zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishda namuna bo'ladilar. Bolalar boshqa bolalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarning mustahkam poydevorini qo'yadi.

Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni - sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va xatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Bolalar boshqalar ularning har birini qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko'rganlarida hamda sezganlarida o'zlarini qulay his qiladilar va erkin tutadilar, shu bilan birga o'zlarining shaxsiy qiziqishlarini amalga oshiradilar.

Tarbiyachilar shuni tushunib yetishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his etadilar va sezadilar. Bolalarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab etadi, o'zaro ta'sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo'lishi lozim.

O'z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish yo'li oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki raxmatnoma bo'lishi ham mumkin. Odatda ota-onalar bunday maktublarni qiziqish bilan o'qiydilar va javob yo'llashga harakat qiladilar.

Bundan tashqari aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o'ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklangan yoki oilada telefon bo'lmaganda bu o'zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo'lsa, kundalik doimiy aloqani

ta'minlaydi hamda ota-onalar yoki pedagoglar jamoasini u yoki bu o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul ayniqsa, ota-onalar uchun qo'l keladi. Chunki ular o'z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydilar.

Umuman olganda, oila bu - qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institutdir. Tahlillarimiz asosida bola tarbiyasi borasida MTM va oilaning samarali hamkorligiga erishish tarbiyachining qay darajada pedagogik mahoratni egallaganligiga bog'liqdir. Demak, oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy olamining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA QO'LLANILADIGAN O'YINLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va xodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam harbiy bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning biron-tasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi: bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan xal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin<sup>1</sup>:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

<sup>1</sup> Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.:2004. 118- b.

- ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir, ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi.

Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan narsadir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning xozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirishi passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi,

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining

ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, shifokorlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni. O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shaklidan xislatlarga ega bo'lib boradi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o'yinlari orqali kuzatish qulaydir Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, "poyezd" o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir,

stantsiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinni umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yin, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysunish va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa endi o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruxiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi,

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli vaqt - yutish va muvaffaqiyat bo'lgan musobaqa o'yinlarining ham ahamiyati juda katta.

Katta bog'cha yoshida qurish o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O'yinda bola sodda mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi. Predmetlarning xossalarni anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos - ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yosh davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruh ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari haqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchog'i masalasiga ham to'xtab o'tish kerak.

Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh xususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'proq nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, 1-3 yoshdagi bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirgan bo'ladilar. Ular hali ko'p narsalarning rangini, hajmini ham yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga qo'g'irchoq bilan birga har xil rangli kiyim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniqsa, qiz bolalar o'z qo'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoqlarni berish foydalidir.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALAR BILAN O'TKAZILADIGAN KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN-MASHG'ULOTLAR**

### **“Uchinchi ortiqcha”**

#### **(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)**

1. Kattalar uchta so'z aytishlari kerak. Masalan, “burgut”, “chumchuq”, “yo'lbars”. Bola aytilgan so'zlarning barchasi jonli ekanligini, lekin burgut va chumchuq - qush, yo'lbars esa hayvon ekanini aytishi kerak.

2. Bolaga “sut”, “sharbat” va “kulcha” so'zini aytishingiz, bola esa bularning barchasi yegulik ekanini, lekin sut va sharbat ichilishini, kulcha yeyilishini aytishi lozim. Boshida bola bu o'yinga uncha tushunmasligi mumkin, lekin siz unga yordamlashib nima jonli, nima jonsiz, yeyiladigan, ichiladigan va hokazolar to'g'risida ma'lumot berib o'tishingiz kerak. Birinchi o'yinda u bir narsani, ikkinchisida esa ikkita narsani bilib oladi. Natijada bolalar nafaqat aytilgan predmetlarning qanday va nima maqsadda ishlatilishinagina emas, balki mantiqiy fikrlashni ham o'rganadi.

Bu yoshdagi bolalarni harakatli o'yinlar bilan ham o'zingizga jalb etishingiz mumkin. Masalan, samolyot qanday qanot yozib uchishini, qanday tovush chiqarishini, ayiq polvon qanday yurishini, ovozining yo'g'onligini ko'rsatib, bolalar bilan xona bo'ylab yuring.

### **“Xotira o'yini”**

#### **(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)**

1. Stol ustiga bir necha predmetni qo'yib qo'ying. Ular oltiyettitadan oshmasligi kerak. Bolalar bu predmetlarni ko'rib olishiga bir necha daqiqa vaqt beringda, predmetlarni ustini yopib qo'ying. Bolalar stol ustida qanday predmetlarning borligini bir necha soniyadan keyin aytishi kerak.

2. Bolalar predmetlarni bir necha daqiqa ko'rib bo'lgach, ko'zini yumib turing va bir predmetni olib, qolganlarining joyini almashtirib qo'ying. Bolalar olib tashlangan predmetning nomini aytib berishi lozim bo'ladi.

3. Stol ustidagi predmetlarning birini olib tashlamasdan, aksincha, yana bir predmetni qo'shib qo'ying. Bu o'yin bolalarning nafaqat diqqatini oshirishga, balki xotirasini ham rivojlantirishga yordam beradi. Qiziqarli tomoni shundaki, bu o'yin usuli bilan nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham diqqat-e'tibori, xotirasini tekshirish mumkin.

Kechqurun barcha oila a'zolari bir joyga to'planganida kattalar diqqatini, xotirasini ularning kichkintoylari ham tekshirishlari ular uchun juda maroqli bo'ladi.

### **"O'ringni top!"**

#### **(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)**

1. Bu o'yin bolalarni predmetlarni qayerga tegishli ekanini aniqlashlariga yordam beradi. Buning uchun siz qoshiq, kitob, daraxt, likopcha, doska, qalam, sumka, javon, lampa va bokazolarning kichikroq rangli suratlari va kattaroq qilib chizilgan oshxona, tabiat va maktab suratlarini yonma-yon qo'yib chiqishingiz kerak. Shundan so'ng bolalar kichikroq hajmdagi predmetlar qayerga tegishli ekanligini topishi kerak.

2. Bolalarga bundan ham qiziqarliroq bo'lishi uchun o'rmon va hovlili uy-joy hamda uy va yovvoyi hayvonlar tasvirlangan suratlarni chizing. Barcha rasmlarni aralashtirib chiqing. Bolalar hayvonlar uyda boqiladimi yoki o'rmonda yuradimi, shuni topib o'rniga qo'yishlari kerak. Bu o'yin o'ynalayotganda o'rmonda va uyda yana qanday hayvonlar bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'ting va iloji boricha ularning rasmlarini chizib ko'rsating. Keyingi safar yana shu o'yinni o'ynayotganingizda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning qanday ovoz chiqarishi, qanday yurishi haqida ham gapirib bering. Bu o'yin-mashg'ulot bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarini oshiradi.

### **"Bu nima?"**

#### **(3-5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun)**

5 yoshli bolalarga unchalik murakkab bo'lmagan shakllarni nuqtalar yordamida chizib chiqing. Bolaga esa bu nuqtalarni birlashtirish kerakligini tushuntiring. Bola nuqtalarni birlashtirib

bo'lgandan so'ng uning nima ekanligini aytadi va ichini bo'yab chiqadi. Rasmni bo'yashdan oldin uning rangi qanday bo'lishi kerakligi haqida ham ma'lumot berib o'ting. Chizilgan shaklni u o'zi istagan ranglarda bo'yashiga ham imkoniyat bering. Muhimi, u turli ranglardan foydalanishi kerak.

### **“Doira” o'yini**

Bolalar doira bo'lib o'tirib oladilar. Bunda har bir bola doiradagi qolgan bolalarni ko'rib turishi lozim. Tarbiyachi: “Ana endi hech kim chekkada qolib ketmaganligini bilish uchun, bir-birimiz bilan ko'zlarimiz yordamida salomlashib chiqamiz. Men birinchi bo'lib boshlayman. Men hamma bilan salomlashib bo'ganimdan so'ng mening qo'shnim salomlashishini boshlaydi”. Tarbiyachi har bir bola bilan salomlashib bo'lgach, yonidagi bolaning yelkasini qoqib qo'yadi. Shundan so'ng keyingi ishtirokchi salomlashishini boshlaydi. O'yin shu tariqa oxirgi bolagacha davom etadi.

### **“Ko'zgu” o'yini**

Tarbiyachi: “Menimcha, har biringizning uyingizda ko'zgu bo'lsa kerak, shundaymi? Ko'zgunsiz ko'rinishimiz qandayligini bilish qiyin kechadi. Xo'sh agar qo'l ostingizda ko'zgu bo'lmasa nima qilish kerak? Kelinglar, bugun sizlar bilan ko'zgular o'yinini o'ynaymiz. Hozir har biringiz o'zingizning juftingizni topib, bir-biringizga qarab turib olasiz. Kim odam, kim ko'zgu rolini bajarishini aniqlab oling. Keyin esa rollaringiz bilan almashasiz. Ko'zgu odamning har bir harakatini aniq takrorlasin. Chunki noaniq harakat qiluvchi ko'zgular bo'lmaydi. Tayyormisiz? Qani bir harakat qilib ko'raylikchi!”

Tarbiyachi o'ziga sherik topib o'yinni qanday o'ynash kerakligini bolalarga ko'rsatadi. Shundan so'ng bolalar mustaqil harakat qila boshlaydilar. Tarbiyachi esa bolalarning harakatlarini kuzatib boradi. Qiynalayotgan juftliklarga yordam beradi.

### **“Shamol esmoqda” o'yini**

Bolalar doira bo'lib stullarga o'tirib oladilar. Boshlovchi: “Kiyimida qizil rang bo'lganlarga shamol esmoqda”- deydi. Shunda

kiyimida qizil rangi bo'lgan bolalar o'rinlaridan turib, joylarini almashtirishlari kerak. Aynan shu paytda boshlovchi o'ziga bo'sh stul topib o'tirib oladi. Stulsiz qolgan bola boshlovchilik qiladi. Barcha bolalarni turg'azib yuborish uchun "Bo'ron boshlandi" deyish mumkin.

### **"Sovg'a" o'yini**

O'yin avvalida tarbiyachi: "Bolalar, kim sovg'a olishni yaxshi ko'radi? Siz nimani yaxshi ko'rasiz? Bugun siz bilan o'ylab topilgan sovg'alar berish va olish o'yinini o'ynaymiz. Tasavvur qiling, siz xohlagan sovg'angizni do'stingizga taqdim etishingiz mumkin. Do'stingizga qarang, unga nima sovg'a qilgan bo'lar edingiz? Keling, doira bo'ylab bir-birimizga xatti-harakatlar orqali sovg'alar taqdim etamiz. Sovg'a olgan kishi minnatdorlik bildirishni unutmasin". Bolalar bir-birlariga sovg'a berib bo'lganlaridan keyin, qaysi sovg'a eng yoqimli bo'ldi, sovg'a berish yoqimlimi yoki olishmi savollari bilan bolalarga murojaat qilish mumkin.

### **"Nima dumalaydi?"**

Bu o'yin bolalarni narsalarning shakli bilan tanishtiradi. Bolalar bilan quvnoq o'yin-musobaqa uyushtiring, kim o'z shaklini pol yoki stolga o'rnatilgan o'yinchoq darvozadan tezroq dumalatib o'tkazadi. Dumalatish uchun sharcha va kubni taklif eting. Avvaliga bolalar uchun darvozaga nimani dumalatib kiritishning farqi bo'lmas, lekin bir necha urinishdan so'ng u sharchani tanlagan odam yutayotganini tushunib qoladi. Xuddi shu paytda - nega aynan sen shu shaklni, sharni dumalatmoqchisan? - deb so'rang. Unga o'z xatti-harakatini asoslash, xulosa chiqarishiga yordamlashing. "Sharcha dumalaydi, kubik dumalamay to'xtab qoladi". Bola e'tiborini kubdagi o'tkir qirralarga qarating. Sharning tekisligini, qirralari yo'qligini ko'rsating. Shar va kub tasvirini chizib ko'rsating. Rasmda ular oddiygina doira va to'rtburchak shaklida namoyon bo'ladi. Bolaga shar va kub rasmini chizishni taklif qiling.

### **“Qo‘g‘irchoqni kiyintiramiz”**

Bolalar narsalar kattaligi bilan tanishishda turli o‘lchamdagi bir xil predmetlarni taqqoslashdan foydalanadilar. Ularga 2 ta qo‘g‘irchoq (katta va kichik) va ikkita kiyim-kechak to‘plamini tavsiya eting. Qaysi kiyim qaysi qo‘g‘irchoqqa tegishli ekanligini aniqlash bolalarga havola etiladi. Qo‘g‘irchoqlar sovuq yeyotgani, ularni kiyintirish lozimligini ayting. Agar bolalar kiyimlarni taqsimlashda xato qilsa, hechqisi yo‘q. Kiyimlar qo‘g‘irchoqqa katta yoki kichik kelganini bolaga ko‘rsating. Topshiriq to‘g‘ri bajarilgach, bolalarni rag‘batlantirib: - katta qo‘g‘irchoqqa katta ko‘ylak, kichik qo‘g‘irchoqqa kichik ko‘ylak kiydirdik - deb ayting.

Agar sizda kerakli o‘lchamda qo‘g‘irchoq va kiyim bo‘lmasa, uni boshqa narsalar bilan almashtirish mumkin. Karton qog‘ozdan yasalgan qo‘g‘irchoqqa qog‘ozdan qirqilgan kiyim-kechak tayyorlab berish mumkin. Topshiriqni bir oz murakkablashtirish uchun 3 ta qo‘g‘irchoq va ular uchun kiyim-kechak tayyorlash kifoya.

### **“Sichqonchani yashir”**

Bolalar narsalarnig rangiga e‘tibor qilishni o‘rganishlari uchun turli rangdagi qog‘ozlardan katta to‘g‘ri to‘rtburchaklar tayyorlang, har bir shakl o‘rtasidan darcha qirqing. Tagiga sichqon rasmi chizilgan oq qog‘ozni yopishtiring. Sichqon derazadan qarab turgan bo‘ladi. Derazadan kattaroq o‘lchamda to‘rtburchakli eshik tayyorlang. Bolaga o‘yinchoq mushukni ko‘rsatib u sichqon ovlagani ketayotganini ayting. Har bir sichqonchani yashirish uchun derazani shu rangdagi eshik bilan yopish kerak. Shunda mushuk derazani payqamay qoladi. Mushuk uxlayotganda bolaga sichqonchalarni yashirish imkonini bering. Keyin mushukni ovga chiqaring. Agar bola topshiriqni noto‘g‘ri bajargan bo‘lsa mushuk sichqonchani olib ketadi. Agar bu hol bolani xafa qilsa, xatosini to‘g‘rilashga imkon bering.

### **“Xuddi menday bajar”**

Bolalar ketma-ket turishadi. Har bir orqadagi bolaning qo‘li oldidagisining yelkasida turadi. Olib boruvchining birinchi ishorasida

birinchi bola o'ng qo'lini yuqoriga ko'taradi, ikkinchi ishorada ikkinchi bola qo'lini ko'taradi va hokazo.

Hamma bolalar o'ng qo'llarini ko'targanlaridan so'ng, xuddi o'sha tartibda chap qo'llarini ko'tarish taklif etiladi. Keyingi ishora bilan bolalar avval o'ng qo'llarini, so'ngra chap qo'llarini pastga tushiradilar. O'yin ikki marta takrorlanadi, ikkinchi martasida tezlik oshiriladi, xatolikka yo'l qo'ygan bola o'yindan chiqadi.

Mashq ixtiyorsiz diqqatni oshiradi.

### **“Yer, suv, havo, olov”**

Bolalar davra qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'yin sharti bilan tanishtiradi: agar u “yer” desa, hamma qo'lini pastga tushirishi kerak, agar “suv” desa qo'llarini oldinga cho'zadi, “havo” deganda qo'llarini tepaga ko'taradi, “olov” so'zida har ikki qo'l kaft va bilaklarini tashqaridan ichkariga aylantiriladi. O'yin ikki marta takrorlanadi, ikkinchi marta adashgan o'yindan chiqadi.

Mashq eshitish va harakat sezgilarini, diqqatni rivojlantirishga qaratilgan.

### **“Nimadan nima bo'ladi?”**

Bolalar davra qurib o'tiradilar. Olib boruvchi navbat bilan bolalarga murojaat etib savol beradi: “Nimadan nima bo'ladi?” Tuxum, jo'ja boshqalar. Agar bolalardan javob chiqmasa, olib boruvchi har bir so'zga bir necha variantlarni aytib berishi mumkin. Masalan tuxumdan jo'ja... Qaysi bola eng ko'p variantlarni aytsa, uni g'olib deb topiladi.

Mashq diqqat, tasavvur, fikrlash, nutqni rivojlantiradi.

### **“Nima bo'ladi, agar ...”**

Har bir bolaga biron tirik jonzot to'g'risida (odam, xayvon) ertak, hikoya o'ylab topish taklif etiladi. Har bir bola o'ylab topgan hikoyasini qolganlarga aytib beradi. O'ylab topish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

Mashq tasavvur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

## **“Oila” rasmining tahlili (ota-onalar uchun)**

Sizning oldingizda bolangiz chizgan rasm turibdi. Rasm orqali nimalarni anglash mumkin? Esda tuting, bolangiz chizgan rasmdan o‘z aksingizni topishingiz mumkin. Ular orqali oilangizda yuz berayotgan voqea va xodisalardan ogoh bo‘la olasiz. Rasm orqali oiladagi kelishmovchilik, bolaning ruhiy kechinmalari to‘g‘risida ma‘lumotlar olishingiz mumkin.

Ular:

- Oila a‘zolarining ba‘zi birlari rasmda aks etmasa, demak u shaxs bola uchun ahamiyatsiz, demak rasmda esdan chiqarilgan shaxs bolani hafa qilgan. Aka- ukalarning rasmlari chizilmagan bo‘lsa yoki sxemali, yuzsiz, kichik hajmda chizilsa, ota-ona mehriga nisbatan qizg‘anchiqlik, raqobatdan dalolat beradi. Ko‘pincha aka-ukalar hayvonlar rasmi orqali tasvirlanadi.

- Ba‘zi-bir rasmlarda bola o‘zini va o‘ziga yaqin odamlarning rasmini chizadi. Ota-onalarini tasvirlashmaydi. Demak, ota-onasi bolaga kam e‘tibor berishadi. Bolaning yuz tuzilishlari qalam bilan qattiq yurgizilgan, qo‘llari katta-katta chizilgan, demak bola atrofdagilarning muhabbati va diqqatiga sazovor bo‘lish uchun intilayapti. Agar bola faqat o‘zinigina ifodalasa, demak bola faqat o‘zini o‘ylashidan, atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lmasligidan darak beradi. Aks ettirilgan oila a‘zolarining joylashishi va hajmi oilaviy o‘zaro muhabbatning psixologik xususiyatlarini ifodalaydi va bola buni qanday sezishini tasavvur etishni ko‘rsatadi.

Masalan, rasmda kimning bo‘yi eng baland bo‘lsa, o‘sha oilada bosh bo‘ladi, kimning rasmini o‘z yonida ifodalasa, o‘sha bilan yaxshi muloqotga kirishadi. Agar bola o‘zini alohida chizgan bo‘lsa, demak bola yolg‘izlanib qolgan bo‘ladi. Oila a‘zolari bir-biriga yaqin joylashtirgan bo‘lsa, bola ularni birlashtirishga harakat qilayotganini ko‘rsatadi.

Rasm orqali bola o‘z fikrini, xohishini, nimadan xavotir olishlarini, nimadan qo‘rqishlarini rasmda ifodalab berishlari mumkin. Oila a‘zolaridan kim bilan ko‘proq birga bo‘lsa, o‘shaning rasmini chizadi. Odamlarning oyoqlari qalin qilib chizilgan bo‘lsa, bu oiladagi kelishmovchilikdan dalolat beradi. Ba‘zi bir bolalar otalarini

qo'lsiz, og'izsiz chizishadi, demak bu ota og'lini ko'p jazolaganidan, u bilan kam gaplashishidan dalolat beradi. Agar oilada yaxshi munosabat bo'lsa, aks ettirilgan shaxslar yuzida quvnoqlik aks etgan, yaxshi munosabat bo'lmasa, rasmlar sxema usulida berilgan bo'ladi.

Jismoniy tomondan jazolangan bola o'zini juda kichik hajmda aks ettiradi, ota-onasining tishlari va qo'llarini uzun qilib tasvirlashadi. Agar bola qo'llarini qo'lini tepaga qaratib chizsa, bu bolaning vajohatidan dalolat beradi. Agar rasmda oyoqlar proporsional chizilmasa, demak o'sha odamning o'ziga nisbatan ishonchi yo'q. Oyoqlar uzun-uzun qilib chizilsa, bu bolaning mustaqil bo'lishga ehtiyoj borligidan dalolat beradi.

Quyidagi holatlarni rasm orqali izohlasa bo'ladi:

**Bola uyini yaxshi ko'radi:** hamma oila a'zolarining umumiy faoliyati tasvirlanadi. Hech kim esdan chiqmaydi, qalamda oddiy chiziq bilan rasm solingan, kontur bo'yalmagan, shtrixlanmagan bo'ladi.

**Uy sharoiti bolani qoniqtirmaydi:** Figura pozalari- vajohatli, ba'zi -bir figuralar o'chirilgan. Ayrim figuralarda ba'zi tana-a'zolari ifodalanmagan. Oila a'zolarining ayrimlari alohida-alohida aks ettirilgan. Ayrim figuralar bir xil hajmda emas, ayrim oila a'zolari umuman aks ettirilmagan. Kimdir orqasi bilan aks ettirilgan.

**Bolaga kam ahamiyat berishadi:** Rasm avtori juda kichik hajmda va orqasi bilan aks ettirilgan. Avtor boshqa oila a'zolaridan ajratilgan yoki umuman aks ettirilmagan. Avtor harakatda emas, boshqa oila a'zolari harakatda ifodalangan.

**Bolaning holati havotirli.** Rasm ichidan shtrixlangan, bo'yalgan, o'chirilgan izi ko'rinib turibdi. Qattiq bosib chizilgan, bir necha chiziq ustma-ust tushgan. Rasm past va tepa tomondan chegaralangan.

**Kimni birinchi bo'lib chizsa** - u bola uchun aziz inson.

O'zini yirik qilib chizsa - demak, uyda unga ko'proq ahamiyat berishadi.

Yopiq yuz - bola oilada bo'lishni xohlamaydi.

Og'zi, labi katta bo'lsa, vajohat belgisi;

Yoritgich uskunalari, quyosh rasmi chizilsa, oilada iliqlik bor.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH**

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek MTMlariga jalb qilinmagan bolalar uchun MTMlarda, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki MTMdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- aqliy
- mahsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy

madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda uquv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuqlarida erkin foydalana olishi, hikoya qilish, muloxaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya'ni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, mahsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligini ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik - MTM va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni bolaning yangi ijtimoiy psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat sistemasining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq, endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta'lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o'zgaradi, erkin o'yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o'quvchining o'z xatti-

harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma'suliyati ancha-muncha ortadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarida: "Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik" va "Maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

Maktabga **umumiy tayyorgarlik** MTMning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffaqiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bo'lish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni

faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir, u bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. MTMda bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi sistemasiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Bolaning maktabda (o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy xissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi.

Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha ta'lim yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishiga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvordagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha ta'lim yoshi oxiriga

kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'ysunuvchilari tashkil qiladi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning harf topishida, shuningdek katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy xulq atvoridagi mustaqillik uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik va xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bilan xulq-atvordagi maqsadga yo'nalganlikda, o'z faoliyatini MTMDa qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o'z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni xis qilishda o'z ifodasini topadi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Tajribaning ko'rsatishicha maktabdagi o'qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda "jamoatchilik" sifatleri: do'stlarga nisbatan xayrixoh, hurmat bilan munosabatda bo'lish, tashkilotchilik ko'nikmalari, hushmuomalalik, g'amxo'rlik bildirish, o'zaro yordamga tayyorlikning qanchalik muvaffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bola xulq-atvorida jamoachilik hislarida bunday majmuining mavjudligi uni maktabga axloqiy tayyorgarligining ko'rsatkichi bo'la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomalada ko'tarinki ijobiy ruxni yuzaga keltiradi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy xissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu o'rinda eng ibratlisi bolalarning axloqiy xulq atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunarli, ularda o'z xatti harakatlarini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish, ma'suliyat, haqqo'ylik, insoniylik va fuqarolik xissiyotlari elementlarini shakllantirishdir. Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning mehnatga munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, talifdagilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallashdir.

Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilim boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va xajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni xal etishda bilimlarni mustaqil qo'llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilim faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda:

*Birinchi*dan, bilim jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va xodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilim va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq xal etish qobiliyati va shu kabilar;

*Ikkinchi*dan bilim jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

*Uchinchi*dan bolada atrof dunyoga bilim munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy

tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda xodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va xodisalardagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni xal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini egallab olishlari kerak.

Nutqni qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolani maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi - bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aqliy tayyorlik tarkibiga shuningdek, savodning boshlang'ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko'nikma va malakalar doirasi ham kiradi.

Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola

tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Bolani maktabda o'qishga jismoniy tayyorligi o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o'zgarishi, jiddiy o'quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo'r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi navbatda bola salomatligining yaxshi bo'lishi, organizmning chiniqqanligi, ma'lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o'rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy sharti.

Maktabga jismoniy tayyorlik shuningdek bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Jismoniy tayyorlik bola maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog'ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko'rsatkichlar suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir sistemasining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko'p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikni "Maktabga yetuklik"ni asosiy ko'rsatkichi va eng avvalo bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o'tirish uchun zarur bo'ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo'ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos

shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligi taa'luqlidir.

Bolalarni tekshirish ularni maktabda olti yoshdan o'qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko'pchilik bolalarda uning asosiy ko'rsatkichlari norma atrofida ekanligini va xatto undan ilgariylashini ko'rsatdi

Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, xilma-xil harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat rejimi bolalarni maktabda o'qishiga jismoniy tayyorligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan MTMda va oilada maktabga tayyorlanadi. MTMlarda bolalarni rivojlanishi va maktabga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshadi:

1. Bolalar nutqini rivojlantirish
2. Jismonan rivojlantirish
3. Ma'nan rivojlantirish

Bolalarni maktabga tayyorlashdan maqsad bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzi shakllanishdan iboratdir.

### **1. Jismoniy rivojlanganlik darajasi**

- Mustaqil tarzda jismoniy mashqlarni bajara olish;
- Buyruqqa (start, stop) asoslanib yugura olish;
- Narvon yordamida tepalikka chiqa olish va pastga tusha olish;
- 5 sekund davomida arqonda osilib turish;
- Arg'imchoq ucha olish;
- Cheklangan saf va chiziq bo'ylab yura olish;
- Qiya qo'yilgan taxta ustidan yurib o'ta olish;
- Bir oyoqda qaldirg'och bo'lib tura olish;
- Oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko'tarish, pastga surish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chira olish;

- Joyidan turib 15-20 marta sakray olish, 70-80 sm uzunlikka sakray olish, 30 sm balandlikdagi to'siqdan sakrab o'tish;
- To'xtamasdan 2-3 minut davomida yugura olish; 100 metr masofani to'xtamasdan yugurib o'tish;
- 10 metr masofani emaklab o'tish;
- Safda to'g'ri turish va safni uzunasiga yurish;
- Saflanish va qayta saflanishni bilish;
- Musiqa ohangiga mos holda harakat qila bilish;
- Koptokni irg'itish va ilib olish;
- Ilon izi shaklida yurish;
- To'p-to'p bo'lib aylana bo'ylab yura olish;
- Xalq o'yinlari "Kim chaqqon", "Oq terakmi - ko'k terak?", "Quyoning quyoning ne bo'ldi?", "Chitti gul", "Bog'lam-bog'lam", "Kim oladi shuginani".

## **2. Nutq va tafakkurni rivojlanganligi**

- Tovush, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz etishi; 3000 tadan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- Rasmga qarab gap tuzish;
- Ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- Eshitgan kichik ertak va hikoyalarni qayta so'zlab berish;
- Ifodali nutqqa ega bo'lish;
- Tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berish;
- Ifodali nutqqa ega bo'lish;
- Turli mavzudagi 6 ta she'rni yoddan aytish;
- Ota-ona, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo'yicha qisqacha hikoya tuzish;
- Kattalar va o'rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish;
- Kattalar va o'rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo'lish; va h.k.

## **Bolaning tafakkurini rivojlanishiga oid.**

- O'z fikrini mustaqil, erkin bayon etish va xulosa chiqara olish;
- Mantiqiy tafakkur qilish malakalariga ega bo'lish;

- Tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, analogiya va boshqalarni) yoshiga mos rivojlanishi;

- Fikriy mushohada yuritish;

- Tevarak atrofni to'g'ri idrok etish;

- Ta'limiy o'yinlar vositasida tafakkurni peshlash.

- Gul, daraxt turlarini rangiga, bargiga, mevasiga qarab farqlay olish.

- O'z fikrini talab ehtiyojlarini so'z bilan ifodalash;

- Qirqib bo'laklarga ajratgan voqeaband rasmlarni terish, yaxlitlash;

- Turli tasvirlardan yaxlit obraz yarata olish;

- Geometrik shakllardan ma'lum mazmunga ega bo'lgan tasvirlar tuzish;

- So'zlardan gap tuza olish;

- O'z fikrini bayon etganda taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qila olish;

- Birinchi o'nlikdan son tarkibi (alohida birlikdan) va 2 3 4 5 6 7 8 9 10 sonlarini o'zidan kichik bo'lgan ikki kichik sondan tarkib topganligini bilish;

- Birinchi o'nlikdagi har bir sonni qanday hosil bo'lishini bilish, buning uchun son qatoridagi avvalgi songa 1 ni qo'shish va keyingi sondan 1 ni ayirish.

- 0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 raqamlarini hamda + - = ishoralarini bilishi;

- 200, 500, 1000, 5000 so'mli pullarni bilish;

- O'tayotgan xafta kunlarini ketma-ketligini, kun qismlarini bilish;

- 10 tagacha bo'lgan birikmalardan sanash, sanab ajrata olish;

- Narsalarni sonini raqam bilan muvofiqlashtira olish;

- To'g'ri va egrri chiziqnlarni uchburchak to'rtburchaklarni bir-biridan farqlash hamda tasvirlash.

- Hozirgi zamon texnikasi komp'yuter haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Ekologiyani bilish;

- Mevali daraxtlarni olma, uzum, shaftoli, nok, olcha, gilos, olxo'ri, o'rik nomlarini bilish va hamda tasavvurga ega bo'lish;

- Manzarali daraxtlarni tol, terak, archa, chinor haqida tasavvurga ega bo'ladi;

- Gullar, atirgul, boychechak, qo'qigul, chinni gul, lolaqizg'aldoq haqida tasavvurga ega bo'lish;

- Sabzavot va poliz ekinlarini nomlarini bilish;

- Xona o'simliklarini boshqa o'simliklardan farqi.

- Uy hayvonlari qo'y, sigir, ot, bo'ri, eshak, it, mushuk, echki, yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, ayiq, parrandalardan tovuq xo'roz, o'rdak, g'oz, xashoratlardan chumoli, ninachi, ari, qo'ng'iz, kapalak nomlarini bilish va ular haqida tasavvurlarga ega bo'lish.

- Qushlarni qaldirg'och, chumchuq, musicha, kabutar, bulbul, garg'a, to'ti nomlarini bilish va u haqida tasavvurlarga ega bo'lishlari kerak;

- Uy ro'zg'or, stol, stul, xontaxta, javon haqida tasavvurlarga ega bo'lish;

- Uydagi elektr jixozlaridan elektr chiroq, televizor, radio, magnitafon, dazmol haqida tasavvurlarga ega bo'lish;

- Transport vositalari velosiped, avtobus, avtomobil, trolleybus, tramvay, metro, poezd, samolyot haqida tasavvurlarga ega bo'lish;

- Tog', daryo, ko'l, bog', gulzor, paxtazor, ekin maydonlari, yaylov haqida tasavvurlarga ega bo'lish;

- Xavo, suv, quyosh, shamol, bulut, yomg'ir, qor haqida yoshiga mos ravishda tasavvurlarga ega bo'lish;

- Yil fasllari nomini ketma-ketligini tabiat o'zgarishlari haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lish;

- Kun va tunni farqini anglash;

- Ertalab, kechqurun, peshinni farqlashi;

### **3. Ma'naviy madaniy yetuklik**

- Ona Vatani O'zbekiston haqida qisqacha so'zlab berish;

- O'zbekiston bayrog'i, gerbi haqida fikr;

- Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik xislari va milliy g'ururni yoshiga mos ravishda bilishi;

- Xalqiga Vataniga mehr va sadoqat xislarini shakllantirish;
- Beruniy, Ibn Sino, A.Temur, Navoiy, Ulug'bek, Bobur kabi buyuk siymolar haqida ilk tasavvurga ega bo'lish;
- Milliy bayramlar haqida qisqa so'zlab berishi;
- To'g'ri salomlashish va xayrlashishni bilishi;
- O'zidan kattalarga sizlab murojaat qilishi;
- Qo'lini ko'ksiga qo'yib iltifot ko'rsatishi;
- Uyda ko'chada mexmon borligida kiyadigan kiyimlarni farqlanishini va ularni o'z o'rnida kiyishi;
- Shirin so'zli bo'lish va mehribonlik qila bilish;
- O'tirish va yurish qoidalarini bilish ularga rioya qilish;
- Uyda bog'chada mehmonda ko'chada o'zini qanday tutish kerakligini bilish va unga rioya qilish;
- Yaxshilik va yomonlikni farqlash;
- O'rtoqlari bilan birgalikda o'ynay olish;
- O'yin maydonida muloqot qila olishi va o'rtoqlarini ranjitmaslik zarurligini bilish;
- Xol-ahvol so'rashni bilish;
- Kattalar mehnatini qadrini bilish;
- O'ziga ishonish;
- Ojiz va kuchsizlarni himoya qilishni;
- O'z-o'ziga xizmat qila olishi;
- Uyda yoki bog'cha hovlisida yengil mehnatlarni bajara olishi;
- Oshxona anjomlarini choynak, piyola, qoshiq, likopcha, pichoq kabilarni vazifasini bilish;
- Mehnatsevar bo'lish, yaxshi odat ekanligini bilish;
- Mehnat qurollarini tesha, bolg'acha, boltacha, qaychi, o'roq kabilarni vazifasini bilish;
- Tejamkorlik zarurligi bilishi;
- O'zini ozoda tuta olish;
- To'g'ri yuvinishi;
- Sochiq, sovun, tish yuvish pastalari va cho'tkasidan to'g'ri foydalanishi;
- Mustaqil sochni tarash, turmaklashi;
- Mustaqil tartibli kiyinish va yechinishni;

- Kiyim, o'yinchoq va xona anjomlarini o'z joyiga qo'ya bilishi;
- Ovqatlanish qoidalarini bilishi va unga rioya qilishi;
- Tasviriy san'at asarlaridan zavqlana olishi kerak;

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri **psixologik tayyorgarlik**dir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabda psixologik aniq bir mazmun doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Aksariyat xollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapiriliganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-ona, xatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarning keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas.

Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, taxlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-xodisalar o'rtasidagi eng muhim

xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmalı tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar.

Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsada, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazlilikicha qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan - o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o'yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o'zlashtiradi.

Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas.

Agar bola zarur malaka va ko'nikmalar zaxirasiga ega bo'lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo'lsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo'lmasa, maktabda o'qib ketishi qiyin kechadi. Agar o'qituvchi yoki ota-ona uni o'qishga qiziqтира olmasalar, o'quv vazifalarini zo'rma-zo'raki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo'ladi.

Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish xollari ham kuzatiladi.

Turli ta'na-dashnomlar bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday

qo'rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun xaddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda shubhasiz, murakkab jarayondir.

Bolani birinchi sinfda o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bo'lmagan xolda, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e'tiboriga va hamdardligiga bo'lgan ehtiyoj va ehtiyojlarni kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e'tibor, ular murojaatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e'tibor ko'rsatilishiga bo'lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko'chada, uyda, mehmonda, ishxonada) o'zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqini anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o'qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo'lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa albatta bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Ota-onalar har bir bola ruxiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar.

Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liqdir.

Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar:

- Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar - sangvinik temperamentga mansub bo'ladilar.

- Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar - melanxolik temperamentga kiradilar.

- Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar - flegmatiklardir.

- Jaxldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar - xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko'rsatilsa yetarli bo'ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar.

Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa hech narsa qiziqitirmaydi. Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir.

## **MAKTABGACHA TA'LIMGA OID ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI**

**Aqliy tayyorgarlik** bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

**Bilim** - kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari, voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi

**Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi.** Maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi" tuzilgan. O'zbekiston xalq ta'limi Vazirligi bu dasturni respublikamizning o'ziga xos tomonlarini: iqlimi, jug'rofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar hajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

**Bolalarni bilimlarini sinovchi mashg'ulotlar** - ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ularni inobatga oladi.

**Bolalarni maktabga tayyorlashning maqsadi** maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

**Bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalari** esa: bolalarni jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatdan kamol toptirish ularning sog'lomligini muhofaza qilish; bolalarning ijodkorlik,

mustaqillik, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'yadi.

**Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni** oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish "Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash" tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

**Bolani maktabga tayyorlashning yo'nalishlari.** Yetakchi mutaxassislarining fikriga ko'ra "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

**Direktiv hujjat** bu - yo'l-yo'riq, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan quyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z xodimlariga bergan ko'rsatma, yo'l-yo'riqlariga aytiladi.

**Jismoniy tayyorgarlik** bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

**Joriy rejalashtirish.** Bu har yili amalga oshiriladigan moliyaviy xo'jalik ishlaridir. Maktabgacha ta'lim muassasalari va yuqori bo'limlarning munosabati, reja, boshqarish, Davlat korxonasi birlashmasi to'g'risidagi Xalq ta'limida xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari doirasidagi qonunning ayrim qoidalarga rioya qilish asosida ish yuritadi.

**Indikator** - bolaning ko'z bilan ko'rsa va o'lchansa bo'ladigan ko'nikma va malakalari ko'rsatkichi. Har bir talab tarkibiga kiruvchi bu komponent, mazkur talabni egallashi uchun bola nimalar qilishni bilishi kerakligini ko'rsatadi. Har bir talab bir nechta ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi mumkin

**Istiqbol rejada** 10 yoki 5 yillarga mo'ljallanadi. Bu xalq ta'limi moliyaviy ekonomiya bo'limlarda va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi.

**Qobiliyat** - bu shaxs faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni

egallash dinamikasida yuzaga keladigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatid:

**Kompleks mashg'ulotlar** - bu mashg'ulot bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi.

**Kuzatish** atrof olam predmetlari va xodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan xodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyachi bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi.

**Ko'nikma** - insonning ilgariqi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi

**Maktabga umumiy tayyorgarlik** bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan

ifodalanadi.

**Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi.

**Maktabgacha ta'lim** bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

"Maktabgacha ta'lim" jurnali - ilmiy-metodik oylik jurnal, "Sog'lom avlod uchun" jurnali ilovasi. Jurnalda maktabgacha ta'lim nazariyasi, metodikasi, amaliyoti masalalariga bag'ishlangan maqolalar, mashg'ulotlar, manbalar yoritiladi. "Maktabgacha tarbiya" jurnali 1991-yili O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi muassisligida ta'sis etilib, 1992-yil yanvardan chiqa boshlagan. 1995 yilda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan "Maktabgacha tarbiya" jurnal negizida "Sog'lom avlod uchun" jurnali tashkil etilgan. 1999 yildan boshlab "Sog'lom avlod uchun" jurnal muassisligida "Maktabgacha ta'lim" nomi bilan "Sog'lom avlod uchun" jurnalining ilova nashri sifatida chiqmoqda.

Maqsad va vazifalari: maktabgacha ta'lim va tarbiyaga doir barcha masalalarni - oila, davlat va jamiyat, jamoatchilik muassasalari darajasida o'rganish, kun tartibiga qo'yish, muhokama etish, ularning ilmiy, metodik yechimlarini topishda ko'maklashish, maktabgacha ta'lim pedagogikasi nazariyasi, ilmi, amaliyoti muammolarini keng va har taraflama yoritish, pedagog va psixolog mahorati masalalarini tahlil etish, maktabgacha ta'lim mazmuni, shakllari va metodlarini takomillashtirish uchun

ijodiy sa'y-harakat ko'rsatish, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasidagi maktabgacha ta'lim mutaxassislari tayyorlash tajribasini ommalashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga ko'maklashishdan iborat.

"Maktabgacha ta'lim" ilmiy-metodik, oylik jurnal har oyda 1 marta, yiliga 12 marta chiqadi.

#### **Maktabgacha ta'lim bo'yicha asosiy ish hujjatlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Konsepsiya.
3. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy

Dasturi.

6. Maktabgacha ta'lim sohasida chiqarilgan farmon buyruq, farmoyishlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, direktiv va me'yoriy hujjatlardir.

**Maktabgacha ta'lim muassasalari tiplari.** Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z ishining o'ziga xosligiga muvofiq quyidagi tiplarga bo'linadi:

- umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasasi;
- ixtisoslashtirilgan (jismoniy va psixik rivojlanishida har xil nuqsonlar mavjud bo'lgan bolalar uchun);
- sanatoriy tipidagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun).

**Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni.** Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin xozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish

va maktabga tayyorlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nan rivojlantirish.

**Maktabgacha ta'lim muassasasi** - davlat tomonidan belgilab berilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar va maktabgacha ta'lim muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularga qarab turish va ularni parvarishlash hamda sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim muassasalari.

O'zbekistonda bu muassasalarga bolalar yaslisi, yasli-bog'cha, bolalar bog'chasi kiradi. MTM 2 bosqichdan iborat. 1-bosqich bolalar yaslisi bo'lib, u 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu bosqichda bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, nutqini shakllantirish, ularni moddiy borliq, atrof-olam bilan tanishtirish hamda gigiyena masalalari bo'yicha amaldagi tayanch dastur asosida ta'lim-tarbiya beriladi. 2-bosqich bolalar bog'chasi bo'lib, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu bosqichda bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning ma'naviy kamolotini ta'minlash, jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishlari uchun yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ham MTM mavjud bo'lib, ular maxsus dastur hamda texnik vositalar bilan ta'minlangan.

O'zbekistonda MTM ning moddiy texnika bazasi hamda metodik ta'minotini yaxshilashga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilingan. MTM uchun yaratilayotgan dasturlar va metodik qo'llanmalar pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari hamda davlat va jamiyat talablariga tayangan holda yaratilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda davlat va nodavlat MTM mavjud. Ular qaysi tashkilot qaramog'ida bo'lishidan qat'iy nazar O'zR Xalq ta'limi vazirligi uni kadrlar bilan ta'minlaydi va faoliyatiga ilmiy-pedagogik jihatdan rahbarlik qiladi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri:**

- maktabgacha ta'lim muassasasi nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, barcha muassasa va tashkilotlarda uning

manfaatlarini ifodalaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasasi mol-mulkini o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi;

- ishonchnomalar beradi;

- bank muassasalarida hisob raqamlari ochadi;

- maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, rag'batlantiradi, intizomiy jazo choralarini ko'radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to'xtatadi;

- o'z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ishlarini takomillashtirish, moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;

- bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi, o'quv-tarbiya jarayoni, moliya-xo'jalik faoliyati ahvoli, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog xodimlari** quyidagilarga majbur:

- bolalarni yuqori professional darajada o'qitish va tarbiyalash;

- pedagog axloq-odobiga rioya qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

- o'z malakasini belgilangan tartibda, har uch yilda oshirib borish;

- o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagoglik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

**Maktabgacha ta'lim muassasasi** uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, maktabgacha tarbiya Davlat jamoat tizimining asosiy bo'g'imi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy

bo'limidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda ularning maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi.

**Maktabgacha ta'lim gigiyenasi** - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi va sog'lig'iga hayotiy shart-sharoitlar hamda pedagogik jarayonning ta'sirini o'rganishga qaratilgan maktab gigiyenasining maxsus tarmog'i.

**Maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilishda imtiyozlar.** Quyidagi bolalar:

- I va II guruh nogironlari;
- ko'p bolali oilalarning bolalari;
- harbiy xizmatchilarning bolalari;
- talabalar va pedagoglarning bolalari maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilishda imtiyozlardan foydalanadilar.

Qabul komissiyasi, shuningdek ota-onalari maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda yordam bergan bolalarni istisno tarzida navbatdan tashqari qabul qilishi mumkin. Bunday bolalar kontingenti maktabgacha ta'lim muassasasi rejadagi quvvati umumiy sonining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

**Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar** - 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni anglatuvchi tushuncha. Bu yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'ladi. Bola rivojlanish jarayonida o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Bu bolada faoliyat mayllarining rivojlanishi yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, qobiliyatlarning o'sishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda unga oilaning katta yoshdagi a'zolari va tarbiyachilar yaqindan yordam beradilar. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, oddiy gigiyena, madaniy va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, nutqni rivojlantirish hamda ijtimoiy ahloq va

estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Bog'cha yoshidagi bolaning ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri uning harakatchanligi va taqlidchanligidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir.

Bog'cha yoshidagi bola nutqni bir muncha to'la o'zlashtirgani tufayli unda o'ziga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji tug'iladi. U tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydi. U endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladi, hamma narsani bilib olgisi keladi, u har narsani yangilik sifatida ko'rib, buni har tomonlama bilib olishga intiladi.

Bolaning hayotida va uning ruhiy jihatidan o'sishida qiziqishlar katta ahamiyatga ega. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolani muayyan faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab ruhiy hodisa deyish mumkin. Bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida u bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning irodasi, diqqati, e'tibori hamda muhim xislatlarni o'stirishi va mustahkamlashiga yordam beradi.

Bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsa va hodisalarga oid dunyoqarashi kengayib boradi.

U atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu yoshda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar qiladigan, o'zining kuchi yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

Tarbiyachi bolaning qaysi hohish va talabi uning haqiqiy ehtiyojini ifodalashini, qaysi talab va istagi esa amalga

oshmaydigan shunchaki talab ekanligini farq qilishi lozim. Bu talab va istaklarning birinchisini qondirish, ikkinchisini esa sekin-asta, bolaga tushuntirib rad qilish kerak. Eng yosh chog'ida bola ijtimoiy hayot me'yorlariga muvofiq kelmaydigan istak va talablar bildirishga o'rganib qolsa, katta bo'lganda bu odatini tashlashi ancha qiyin kechadi.

Bola istaklarini qondirishning birdan bir yo'li o'yindir. Shu bilan bir qatorda bu davrda bolaning rivojlanishida musiqa, rasm chizish, raqsga tushish kabi faoliyat turlari uning hissiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bu davrda 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 - 300 tagacha; 3 yashar bolani 1000 - 1500 tagacha; 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 taga yetishi kerak.

Buning uchun ota-onalar va tarbiyachilar hamkorlikda bolaning nutq boyligini o'stirish, ularda so'z ma'nolari va nutq tovushlarni bir-biridan farqlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kundalik faoliyatlari hamda hissiy kechinmalarini muntazam rag'batlantirishlari kerak.

**Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jamoasi** - muayyan o'zaro munosabatlar tizimi (o'yin, hayotiy masalalar) yoki umumiy mashg'ulot turi asosida birlashgan kichik yoshdagi bolalar guruhi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni o'qitish** va tarbiyalash davlat tilida va "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida guruhlar soni** muassasaning quvvatidan va guruhlarning rejali to'ldirilishidan kelib chiqib muassis tomonidan quyidagicha belgilanadi:

2 yoshdan 3 yoshgacha - kamida - 15 bola, biroq 20 boladan ortiq emas;

3 yoshdan 6-7 yoshgacha - kamida - 20 bola, biroq 25 boladan ortiq emas.

Ixtisoslashtirilgan va sanatoriy yo'nalishidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida guruhlarning to'ldirilishi bolalarning toifasiga va yoshiga (ikki yoshdan boshlab va uch yoshdan katta yoshdagilar) qarab belgilanadi va tegishli ravishda

quyidagichani tashkil etadi:

- nutqi og'ir nuqsonli bolalar uchun - 10 -12 bola;
- nutqi fonetik-fonematik nuqsonli bolalar uchun faqat uch yoshdan katta yoshdagi bolalar uchun - 12-15 bola;
- kar bolalar uchun - 8 bola;
- yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun - 10 -12 bola;
- ko'zi ojiz bolalar uchun - 6 bola;
- yaxshi ko'rmaydigan bolalar, ambliopiyali, g'ilay bolalar uchun - 6 - 10 bola;
- tayanch-harakatlanish a'zosi buzilgan bolalar uchun - 6 - 10 bola;
- intellekti buzilgan (aqliy noraso) 3 yoshgacha bolalar uchun - 6 bola;
- uch yoshdan katta yoshdagi aqli zaif bolalar uchun - 10 bola;
- sil intoksikatsiyasi mavjud bo'lgan bolalar uchun - 15 -20 bola;
- tez-tez kasallanib turadigan bolalar uchun - 15 -20 bola;
- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) bolalar uchun - 8-10 bola;
- rivojlanishida boshqacha nuqsonlari (endokrin kasalliklar) mavjud bo'lgan bolalar uchun - 15 - 20 bola.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish** maktabgacha ta'lim muassasasiga yuklanadi hamda O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining qatnashchilari.** Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar, otanonalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va pedagog xodimlar ta'lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni** O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Bunday dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan

belgilanadi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida to'lov miqdori.** Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lishi uchun to'lov miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. To'lov belgilangan tartibda bank muassasalarida ochilgan hisob raqamlariga to'lanadi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv yili** har yili 2 sentyabrdan boshlanadi, keyingi yilning 1 iyunida tugallanadi va yangi o'quv yili boshlangunga qadar sog'lomlashtirish davri boshlanadi.

**Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalari.** Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

**Maktabgacha ta'lim muassasasining ish rejimi** va bolalarning u yerda qancha vaqt bo'lishi maktabgacha ta'lim muassasasi ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtlarda hamda kechayu kunduz faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi.

**Maktabgacha ta'limning vazifalari:** bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish

ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

**Maktabgacha ta'limning maqsadi:** bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish.

**Maktabgacha ta'lim pedagogikasi** - pedagogikaning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, prinsiplari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o'rganuvchi sohasi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafosat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog'liq. 19-asrning 2-yarmida umumiy pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomondan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog'i sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R.Ouen birinchi bo'lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanning maxsus tarmog'i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. 20-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g'oyasi keng tarqaldi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy vazifasi - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyutsion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O'zRning 1997 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga

oid tarixiy tajribasi, ilg'or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi.

**Malaka** - bajarilishi yod bo'lib ketgan, takomillashgan ko'nikmalar tizimi

1) psixologiyada - muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat.

2) Huquqda - ishni bajarish uchun qanday kasb qay saviyada egallaganligini ko'rsatuvchi daraja.

**Maxsus tayyorgarlik** bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Mashg'ulotlar** - MTMda o'qitishning tashkil etish shaklidir. Ular maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiy; ular uchun dastur mazmuni belgilangan, kundalik rejimida doimiy vaqt ajratilgan, ularning qancha vaqt davom etishi tayinlangan.

Mashg'ulot tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiy holda xabardor qilish demakdir.

**Mashg'ulotni tuzilishi:**

- bolalarni uyushtirish
- asosiy qism
- yakuniy qism

**Metod** - boshqarish usuli.

**MTMlarda bolalarni maktabga tayyorlash.** MTMlarda bolalarni rivojlanishi va maktabga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshadi:

1. Bolalar nutqini rivojlantirish
2. Jismonan rivojlantirish
3. Ma'nan rivojlantirish

**Mudira** - maktabgacha tarbiya muassasasining tashkilotchisi rahbari, malakali pedagog. Uning faoliyati maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni komil inson qilib

tarbiyalash vazifalarini to'laqonli xal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik maqsadiga qaratilgan va inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik. Bu mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

### **Mudiraning tashkiliy - pedagogik ishlarini rahbarligi.**

Tashkiliy - pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi.

1) Bayram ertaklarini o'tkazish va rahbarlik.

2) Ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va tahlil qilish.

Masalan, ochiq mashg'ulot, sayrlarni kuzatish.

3) Xalq ta'limi bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashishi, yil tarbiyachisi, san'at bayrami, sport bayramlarini o'tkazish.

**Mudiraning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi** quyidagilar:

a) har bir guruhdagi ta'lim-tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish guruhning ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi, diagnostika daftari: bu o'tkazilgan ishlarning hisobotidir.

b) guruhning jihazlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

Mudira har kvartalda bir marta umumiy ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majliski ota-onalar komitetining raisi olib boradi yoki yordam beradi. Mudira 1 haftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo kamchiliklar bilan bolalar tarbiyasiga oid muammolar xal etiladi.

**Muammo** - har qanday tizimda mavjud va zarur bo'lgan

holatdan chetga chiqishni tavsiflovchi vaziyat (voqelikni)ni anglatadi.

**Normativ hujjat** - normalar qoidasiga asoslangan hujjatdir.

Masalan: Bolalarning yoshi bo'yicha yosh guruhlariga to'g'ri taqsimlash, xodimlarni shtat normasi bo'yicha ishga qabul qilish, smeta bo'yicha harajatlarni taqsimlash - sarflash, bolalarning ovqatlantirish normalari, tarbiyachilarning oylik ish haqlari va x.k. iborat.

**Rivojlanish** - bu insonning ruhiyati va organizmidagi sifatiy o'zgarishlaridir. Bu o'zgarishlar ijtimoiy muhit, uy-joy sharoitlari, uni qurshab turgan kishilarning ta'siri natijasida yuz beradi.

Rivojlanish - bu obyektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshqariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatidan fizik va ma'naviy shakllanish, ya'ni, shaxsning fazilatlarini, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan - qiyinga, oddiydan - murakkabga, mavhumdan - bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan - oliy faoliyatga o'tish jarayonidir.

**Rivojlanish sohasi** (Domen) - bola shaxsi rivojlanishining jabhalari sifatida belgilanadi va odatda aniq bir yo'nalishda o'z aksini topadi. Bundan tashqari har bir alohida soha ichida ayrim aniq yo'nalishlar rivojlanishiga tegishli bo'lgan bo'limga ajratiladi (masalan, "jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena yo'nalishdagi "mayda motorikani rivojlantirish bo'limi")

**Stil** - boshqarish uslubi - rahbar shaxsini psixologik, xarakteri orqali boshqarish.

**Talab** - aniq yosh davrida bolalar bilishi va bajara olishi shart bo'lgan talablar majmui.

**Tarbiya** - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

**Ta'lim** - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi.

**Ta'limga yondashuv** - kattalarning bolalar bilan ta'lim jarayonini tezlashtirish va talabni egallashga yo'naltirish maqsadida, uy yoki maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiradigan faoliyat turlari. Ushbu chora-tadbirlar mazkur talabni o'zlashtirish va bajarishga yo'naltirilib, aksariyat hollarda ta'lim olish jarayoniga qiziqtirish uchun kattalar va bolalarning birgalikdagi harakatlari bo'lishi lozim.

**O'qish** - bilish, mashq va tajribalarni egallash orqali xulq va faoliyatning yangi shaklini paydo bo'lish jarayoni.

**Hayot havfsizligi** - berilgan talablar doirasida turli ko'rinishdagi rivojlantiruvchi faoliyatlar uchun xavfsiz muhitni tashkil etishga oid tavsiyalar.

**Shaxsiy tayyorligi**, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy xodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - Toshkent: "Adolat", 1998.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 11-modda. T.: O'zbekiston, 1997. B.23
3. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: "Sharq", 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
6. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent - 2010.
7. "Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari" II Xalqaro ilmiy - amaliy anjumanining tezis va maqolalar to'plami, 2008 yil.
8. "Maktabgacha ta'lim tizimiga doir huquqiy - me'yoriy hujjatlar to'plami", 2009 yil.
9. "Uchinchi mingyillikning bolasi." tayanch dasturi va o'quv qo'llanmasi Tuzuvchilar: M.Sh.Rasuleva, S.S.Mirdjalilova va boshqalar. "Ma'rifat- madadkor" T.: 2000.
10. "O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash - yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent - 2009 yil.
11. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
12. Bekmatova O. A. va boshqalar "Quvnoq harflar" Toshkent-2000
13. Bo'tayeva U., Oqilova K.. Maktabgacha yoshidagi bolalarni shakllantirishda o'yin-mashg'ulotlarning o'rni // metodik tavsiyanoma Samarqand 2009 y. 24 b
14. Vaxobova F.N., M. Sh. Rasulova va boshqalar "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent - 2008.

15. Vaxobova F.N., M.Sh.Rasulova va boshqalar "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent- 2008y.

16. G'aybullayeva M. "Bolalar nutqini o'stirish" Toshkent - 1998.

17. G'aybullayeva M. "Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi". Toshkent, 2006.

18. G'aybullayeva M. "Farzandlarimizni allalab, erkalab o'stiramiz". Toshkent: 2006

19. G'afforova T. va boshqalar "1-sinf savod darslari" Toshkent: 1996.

20. Djumanova D., Yu.K. Prusakova "Quvnoq logoritmika", metodik qo'llanma, 2009.

21. Jalolova G. "Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish" Toshkent 2004.

22. Zaynitdinova D. "Harakatli o'yinlar". T.: 2006

23. Karimov M. va M.Ikromova "Raqs elementlari orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish" metodik qo'llanma, 2008 yil

24. Kirsten A., Xansen, Rokkana K. Kaufmann, Keyt Berk Uolsh. Bolaga mo'ljallangan dasturni tashkil etish // So'z boshi Pamela A.Koglinniki / Toshkent 2005. 246 b.

25. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva. "Katta guruh tarbiyachilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari" (metodik qo'llanma) T.: 2007.

26. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva, M. Rustamova. "Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari" (metodik qo'llanma) T.: 2010.

27. Qodirova F.R., R. M.Qodirova "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent- 2006y

28. Qodirova F.R., R.M.Qodirova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o'rgatish metodikasi" Dastur va o'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.

29. Qoraboyeva D., Z.Ibroximova va boshqalar "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi va o'quv qo'llanmasi uchun badiiy to'plam. (she'r, hikoya, ertak va topishmoqlar). Toshkent 2006.

30. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent – 2008.

31. Mahkamjonov K.M., M.Sh.Rasuleva va bosh. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi", "Ilm Ziyo" nash. T.: 2006

32. Mirdjalilova S., R.To'laganova "Ta'limda innovatsiya", "Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar" metodik tavsiyanoma, 2008 yil

33. Muminova, Sobirova va boshqalar. "Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturlari"

34. Mo'minova L.R. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi" Toshkent-1996.

35. Nazarova F. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat va me'yoriy hujjatlar", 2007 yil.

36. Nizomova K. "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish" \\\ metodik qo'llanma. Toshkent 2006.

37. Nurkeldiyeva D.A. va boshqalar "Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar". Toshkent 2007.

38. Ravshanova N. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim - tarbiya" bo'yicha tuzilgan namunaviy dastur va o'quv qo'llanma. Ilm Ziyo nash. T.: 2006

39. Rasulova M., D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, "Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi" Toshkent, 2004 yil.

40. Rasulova M. va b. "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi. T: 2002.

41. Raximova N. "Kuyla, oftobim". Toshkent 2006.

42. Rahmonqulova Z. "Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish" \\\ metodik qo'llanma. T.: 2007.

43. Raxmonqulova Z., N.Qurbonova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini shakllantirish" \\\ metodik qo'llanma, 2009 yil.

44. Rustamova M., D.Djumanova "Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda metodik birlashmalarning o'rni" \\\ metodik tavsiyanoma, 2008 yil.

45. Sadatov Ch. X. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Termiz: - 2008.

46. Safarova R. va boshqalar "Savod o'rgatish darslari", Toshkent: - 2003.

47. Sodiqov A.R., A.Mirzaahmedov "Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni ovqatlantirish" ilmiy - uslubiy qo'llanma, 2008 yil.

48. Sodiqov A.R., A.Mirzaahmedov "Ovqatlantirishni tashkil etish va me'yoriy hujjatlarning yuritilish tartibi", metodik qo'llanma. Toshkent, 2007 yil.

49. Turg'unov S.T., va b. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari: (o'quv qo'llanma) - T.: "Sano-Standart", 2011. - 162 b.

50. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012. - 100 b.

51. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2012. - №1. - B. 133-134

52. Usmonxo'jayev T.S., Islomova S.T. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya" "Ilm Ziy" nash. T.: 2006

53. Ушакова О.С. ва б. "Занятия по развитию речи в детском саду" - Москва:-1999.

54. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. - T.: 2008.

55. Fayziyeva U. "Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi". T.: 2006

56. Fayzullayeva M., Z.Rahimova, M.Rustamova Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish // ( Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi) Toshkent, 2011. 147 b

57. Sharipova D. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz" va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) Metodik qo'llanma. T.: 2006.

58. Sharipova D.J. "Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida" Ilm Ziyo nash. T.: 2007
59. Shodiyeva Q. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish" Toshkent: - 1995.
60. Shodmonova Sh., "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent: - 2003.
61. Shomurotova Z. "Tovushlarning me'yoriy talaffuzi" - Toshkent.: - 2007.
62. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". O'qituvchi. - T.: - 1993.
63. Xasanboyev J., X.To'raqulov, M.Haydarov, O.Xasanboyeva, N.Usmanov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 672 bet.
64. <http://eduportal.uz/uzb/info/axborot/59uzb/priloj/>
65. [http://fikir.uz/posts/Fikr\\_maktabgacha\\_talim/10138.html](http://fikir.uz/posts/Fikr_maktabgacha_talim/10138.html)
66. [http://fikir.uz/posts/Fikr\\_maktabgacha\\_talim/10839.html](http://fikir.uz/posts/Fikr_maktabgacha_talim/10839.html)
67. [http://fikir.uz/posts/talim\\_fan\\_taraqqiyoti/9656.html](http://fikir.uz/posts/talim_fan_taraqqiyoti/9656.html)
68. <http://opi.nuu.uz/>
69. <http://uznet.biz/bolajonim/psixologiya/6-yoshli-bolalarni-maktabga-tayyorligini-aniqlash-boyicha-metodik-tavsiya>
70. <http://uznet.biz/bolajonim/psixologiya/PSIXOLOGIK-OYINLAR>
71. <http://www.gov.uz/uz/citizen/education/960>
72. <http://www.rtm.uz/blog/2012/11/barkamol-avlodni-shakllantirishda-oila-mahalla-va-uzluksiz-talimining-hamkorligi>
73. <http://ziyonet.uz/uzl/education/system/preschool/>
74. <http://ziyonet.uz/uzl/education/system/preschool/>

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili .....	6
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari (xorij tajribalari asosida) .....	15
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	29
Bolalarning me'yoriy rivojlanish mezonlari .....	35
Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va tarbiyachi mahorati ...	43
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasida qo'llaniladigan o'yinlarning psixologik xususiyatlari .....	59
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan korreksion-rivojlantiruvchi o'yin-mashg'ulotlar .....	64
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash .....	72
Maktabgacha ta'limga oid asosiy tushunchalarning izohli lug'ati .....	89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	106

**B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI  
BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING  
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

Muharrir:	X.Xudayberdiev
Musahhih:	A.Zokirov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Xoliqov

Bosishga ruxsat etildi 04.12.2015.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Bosma tabog'i 7.  
Buyurtma №05/12. Adadi 700 nusxa.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari  
ilmiy tadqiqot instituti «Riso EZ 200 E» nusxa ko'chirish  
moslamasida chop etildi.